




TAHRIR VA TAQDIR

Muharrir deganda ko'pchilik matnning imlo xatosini tuzatadigan, uni qisqartiradigan, jimjimador sarlavha qo'yadigan odamni tasavvur qiladi. Aslida muharrir – maqolalar orqali jamiyatning kun tartibini shakllantiradi, ijtimoiy fikr o'zanini yaratadi. Kuchli nashr ortida nafaqat mualliflar va tahririyat, balki muharrir va u yaratgan tahrir maktabi turadi.



(Davomi 2-sahifada.)

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO'G'RISIDA

Mamlakatimizda so'z va matbuot erkinligini rivojlantirish, xalqimizning axborot sohasidagi konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlash, davlat va jamiyat boshqaruvida ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini mustahkamlashga qo'shayotgan munosib hisssasi, global axborot maydonida milliy manfaatlarimizni himoya qilish, Yangi O'zbekistondagi demokratik islohotlar, yangilanish jarayonlari va erishilayotgan yutuqlarni keng yoritishdagi katta xizmatlari, zamonaviy jurnalistika uchun yuqori malakali kadrlarni tayyorlash, yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat, umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash borasidagi samarali faoliyati hamda ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki uchun quyidagilar mukofotlansin:

“Mehnat shuhrati” ordeni bilan

Abdullayev Farxod Badalovich – “Sevimli” telekanalining “Eslab, eslab” loyihasi boshlovchisi
Kazakbayev Tulkun Muxitdinovich – O'zbekiston Jurnalistlar uyushmasi a'zosi, yozuvchi va publitsist

Qurbonova Aziza Abdusabitovna – Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazining axborot tayyorlash bo'limi yetakchi mutaxassisi

Soliyeva Azizaxon Turg'unovna – Buvayda tumani “Buvayda ko'zgusi” gazetasi bosh muharriri, Farg'ona viloyati

“Do'stlik” ordeni bilan

Atabekova Zuxri – ijtimoiy tarmoqlardagi “Zuhra_buvi” sahifasi asoschisi, blogger

Biryukov Valeriy Vasilyevich – “TACC” axborot agentligining O'zbekistondagi muxbiri

Mustakimov Rim Munirovich – “Zarafshon” va “Самаркандский вестник” gazetalari tahririyati katta musahhihi, Samarqand viloyati

Naxanov Jaxongir Atayarovich – “Ishonch” va “Ishonch–Доверие” gazetalari bosh muharriri o'rinbosari

(Davomi 2-sahifada.)



NAMANGAN: GULLAR SHAHRI, GULLAYOTGAN YURT



Bugun Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlarning eng yorqin namunalari va drayver kuchlarini Farg'ona vodiysining gavhari bo'lmish Namangan viloyati timsolida yaqqol ko'rish mumkin. Xalqimizda “Intilganga tole yor”, degan teran iborabor. Namanganahli azaldan o'z mehnatsevarligi, yaratuvchanligi va tashabbuskorligi bilan ajralib turadi.

Bugun Namangan o'zining tadbirkorlari, sanoat, qishloq xo'jaligi, ilm-

fan, madaniyat, san'at va sportdagi yutuqlari, bilimli va shijoatli yoshlari bilan nafaqat mamlakatimiz rivojiga ulkan hissa qo'shmoqda, balki ertangi kunda yanada yuksak tarixiy natijalarga erishishga to'la qodir ekanini isbotlamoqda. Davlatimiz rahbarining kuni kecha Namangan viloyatiga amalga oshirgan tashrifi mana shu haqiqatni isbotladi.

Birgina Namangan viloyatining o'ziga yil boshidan 2 milliard dollarlik xorijiy investitsiya kiritildi. Bugun Xitoy, Turkiya, Hindiston va Rossiyalik ham-

korlar bilan barpo etilgan 1 milliard 800 million dollarlik 20 ta yangi quvvat ishga tushirilmoqda. Ular hisobidan farmatsevtika, yengil sanoat, elektrotexnika, qurilish materiallari, oziq-ovqat va kimyo sanoatida 6,5 mingta ish o'rni yaratiladi, 30 dan ziyod yangi mahsulotlar ishlab chiqariladi. Ushbu loyihalar orqali viloyat iqtisodiyotiga 3 trillion 600 milliard so'mlik aylanma, 200 million dollarlik eksport va byudjetga 400 milliard so'mlik tushum qo'shiladi. Shu bilan birga, Namanganda sanoat,

turizm, savdo komplekslari va uy-joy qurilishiga katta turtki beradigan yana 4 milliard dollarlik 28 ta loyihaga start berilmoqda.

Yoshlar masalasi, ularni har tomonlama himoyalash, ish bilan ta'minlash Davlatimiz rahbarining doimiy e'tiborida. Prezidentimiz Namangan viloyati aholisining 1 million 600 mingdan ortig'ini yoshlar tashkil etishi, bu juda katta ijtimoiy-iqtisodiy kapital ekanini ta'kidladi.

(Davomi 2-sahifada.)

FAKT

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning “O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 35 yilligi” esdalik nishonini ta'sis etish to'g'risida”gi Farmoni imzolandi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Andijon shahri “Turkiy dunyoning madaniyat poytaxti” deb e'lon qilinishi doirasida o'tkazilayotgan xalqaro tadbirlar ishtirokchilariga tabrik yo'lladi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida qurilish materiallari tarmog'ida amalga oshirilayotgan ishlar va kelgusidagi ustuvor vazifalar yuzasidan videoselektor yig'ilishi bo'lib o'tdi.

✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi rahbari Said Mirziyoyeva Andijon viloyatida zudlik bilan e'tibor qaratilib, yangilanishi talab etilayotgan obyektlar bilan tanishdi.



MIRTEMIR

KIPRIKLARIM

(Yosh qalamkashlarga ataganim)

Kipriklarim qo'ng'irmikan yo qora?
Kipriklarim yuztamikin yoki ming?
Kipriklarim muncha aziz va sara,
Ko'zginamning kipriklari...
Quyunlarda qolganimda,
changga o'ralganimda,
Ohangaron to'zonidan,
zanji qoralganimda,
Yoki yaxshi timsol izlab,
changday taralganimda,
Yoki bir she'r armonida,
yuz bir ko'ralganimda,
O'zbekiston tonglarini,
bedor kutgan ko'zlarim,
Tengsiz tonglar falsafasin,
tashna yutgan ko'zlarim.
Ko'zlarimga chegarada
shay askarday qo'riqchi,
Ko'zlarimga olis
Bobur g'ussasiday yo'riqchi,
Ey, aziz kipriklarim.
Sergaklikda tiriklarning
siz-ku eng tiriklari.
Kiprigimday azizlarim,
nechog'liq ham suyuksiz.
Armonimday buyuksiz!



“MEN JILG'AMAN, daryo bo'lib to'lgim keladi”

O'ZBEKISTON – YOSHLAR MAMLAKATI

Bugun O'zbekiston aholisining 60 foizga yaqini yoshlar. Shu bois, davlatimiz siyosatida kelajagimiz egalari bo'lmish yoshlar masalasi alohida ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yurtimizda 30-iyun – Yoshlar kuni sifatida nishonlanishi yoxud “O'zbekiston – 2030” stra-

tegiyasining 44 banddan iborat “Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish” deb nomlangan birinchi yo'nalishning yarmidan ko'p bandlari to'g'ridan to'g'ri yoshlar manfaatlariga qaratilgani ham shundan dalolat beradi.

(Davomi 5-sahifada.)



Sahna ortidagi FIDOYILAR

27-iyun – Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni haqida gap ketganda, ko'z oldimizga taniqli jurnalistlar, boshlovchilar, suxandonlar keladi. Ular ommaviy axborot vositasining “yuzi”, “tashrif qog'oz”. Lekin ularning xalq oldiga chiqib borishi yo'lida o'nlab mutaxassislarning ham zahmati bor. Bayram munosabati bilan an'anaviy chiqishlardan chekinib, biz sohaning parda ortidagi fidoylari bilan suhbatlashdik.

(Davomi 3-sahifada.)



“QIZLAR SEP EMAS, BILIM YIG'IB ULG'AYSIN”



Buxoro innovatsiyalar universiteti rektori, pedagogika fanlari doktori, professor Dilnoz RO'ZIYEVA bilan suhbat

– Assalomu alaykum, ustoz! Sizni ko'pchilik fidoyi pedagog, zahmatkash olim va tashabbuskor rahbar sifatida yaxshi taniydi. Hayot, faoliyat va ilmni bir maromda ushlab turish ayol kishiga og'irlik qilmaydimi? Bunda bir-biri bilan kesishadigan, zid keladigan o'rinlar uchrab turadi-ku.

(Davomi 7-sahifada.)



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining FARMONI

MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI MUNOSABATI BILAN SOHA XODIMLARIDAN BIR GURUHINI MUKOFOTLASH TO‘G‘RISIDA

(Davomi. Boshlanishi 1-sahifada).

Suvonov Lutfulla Xayrullayevich – “Yangi O‘zbekiston” gazetasi tahririyatining ijtimoiy-siyosiy hayot va huquq bo‘limi katta muxbiri

Tulegenov Sharafiddin Bakirovich – O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston 24” radiokanali xalqaro tahliliy dasturlar guruhi muallif-sharhlovchisi

Shirmuxamedov Dilshod Sagdullayevich – O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi teleoperatori

II darajali “Sog‘lom avlod uchun” ordeni bilan

Rizayev Murodjon Ziyayevich – O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “Sport” ijodiy birlashmasi futbol translyatsiyalarini uyushtirish muharririyati sharhlovchisi

“Sog‘lom turmush” medali bilan

Xayitova Laylo Sattorovna – “Xabar.uz” internet nashrining Buxoro viloyati bo‘yicha muxbiri

“Kelajak bunyodkori” medali bilan

Majidov Shoxrux G‘olib o‘g‘li – “Kun.uz” internet nashri muxbiri

Meliqo‘ziyev Ravshanbek Isomiddin o‘g‘li – ijtimoiy tarmoqlardagi “Platina.uz” va “Pinkod.uz” sahifalari asoschisi, blogger

To‘lqinova Mahliyo Ozod qizi – ijtimoiy tarmoqlardagi “Sinchalak blog” sahifasi asoschisi, blogger

“Shuhrat” medali bilan

Abdullayev A‘lo Abzalovich – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi fotomuxbiri

Avalboyev Ikrom Xolyigitovich – O‘zbekiston Milliy axborot agentligi muxbiri

Allayev Akbarali Odinamaxmatovich – O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston 24” ijodiy birlashmasi muharrirlar guruhi bosh muharriri

Askarov Jobirxon Kozim o‘g‘li – O‘zbekiston mahallalari uyushmasi matbuot kotibi

Atamuratov Ilxambek Muxammetali uli – “Jaslar TV” telekanali va “Nukus FM” radiosi bosh muharriri, Qoraqalpog‘iston Respublikasi

A‘loyeva Nigoraxon Akrom qizi – “Daryo.uz” internet nashri muharriri

Zakirova Nodira Nasirovna – “Bir safda” jurnali tahririyati bo‘lim muharriri

Ibragimova Zebiniso Asatovna – Nurota tumani axborot-kutubxona markazi axborot-bibliografiya xizmati rahbari, Navoiy viloyati

Irgasheva Maxsuma Raxmatovna – “Saodat” jurnali musahhihi

Karimov Baxtiyor Almosboyevich – “Mening yurtim” telekanalining kino tahririyati muharriri

Karimova Odinaxon Bokibilloevna – O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “Yoshlar” ijodiy birlashmasi direktorining “Navo” telekanali bo‘yicha o‘rinbosari

Kulmatova Dilafuz Ravshanovna – “UzReport TV” telekanali katta muharriri

Logvina Yuliya Sergeyevna – “Народное слово” gazetasi bo‘lim muharriri

Maxmudov Otabek Ulugbekovich – O‘zbekiston Milliy teleradiokompaniyasining “O‘zbekiston tarixi” telekanali ilmiy-tahliliy va intellektual ko‘rsatuvlar muharririyati teleoperatori

Mir-Artikov Nuriddin Maxkamovich – G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyining bosma sexi chop etuvchisi

Mirsadikov Miravzal Mirvaxidovich – “Yoshlar ovozi” mas’uliyati cheklangan jamiyatining “HIT FM” radiosi prodyuseri

Nishanov Nodirbek Iskandarovich – ijtimoiy tarmoqlardagi “Qurultoy” sahifasi asoschisi, blogger

Paydayev Xasan Ibragimovich – Ommaviy axborot vositalari uchun kontent tayyorlash markazi yetakchi mutaxassisi

Salimov Timur Mirsamat o‘g‘li – “Zo‘r TV” telekanali prodyuseri

Yusupov Yakub Kabildjanovich – “Milliy” telekanali texnik direktorining o‘rinbosari

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.MIRZIYOYEV

Toshkent shahri,
2026-yil 25-iyun

NAMANGAN:

GULLAR SHAHRI, GULLAYOTGAN YURT

Boshlanishi 1-sahifada.

Yoshlarga axborot texnologiyalari, sun’iy intellekt kabi zamonaviy bilimlar berib, ularni yuqori daromadli kasblarga o‘rgatish bo‘yicha katta startap loyihalar amalga oshirilayotir.

Ekspertlar O‘zbekistonning sun’iy intellekt bo‘yicha salohiyatini 10 milliard dollarga baholamoqda. Ushbu salohiyatni imkoniyatga, imkoniyatni esa aniq loyiha, yangi ish o‘rni va yuqori qo‘shilgan qiymatga aylantirish zarur. So‘nggi yillarda Nukus, Qarshi, Termiz, Urganch va Farg‘ona shaharlarida zamonaviy IT-parklar ishga tushirildi. Yangi Namangan shahrida barpo etiladigan majmuada namanganlik 2 mingga yaqin yoshlar uchun yuqori daromadli ish o‘rinlari yaratiladi. Loyihaning ishga tushishi viloyatda IT xizmatlar yillik hajmini 500 milliard so‘mga, eksportni esa 30 million dollarga yetkazishga zamin yaratadi. Prezident Shavkat Mirziyoyev Yangi Namangan IT-parki qurilishiga tamal toshini qo‘ydi.

Bugun Yangi O‘zbekistonda hududlarni rivojlantirish shunchaki mahalliy dasturlarni bajarish emas, balki har bir viloyatning ichki imkoniyatlari va kuchli drayverlarini to‘liq safarbar etish orqali milliy iqtisodiyotni yuksaltirishning bosh ustuniga aylanadi.

Hududlarni rivojlantirishda siyqasi chiqqan rejalardan voz kechilib, ilmiy yondashuv kuchaytirilmoqda. Shu maqsadda 14 ta ilmiy-tadqiqot “aql markazi” Namangan viloyati tumanlari va shaharlarida yangicha ish boshlaydi. Bu markazlar hududlarda iqtisodiy diagnostika o‘tkazadi. Mehnat unumdorligi va investitsiya sifatini tahlil

qiladi, kooperatsiya va biznes faolligini oshirish, qo‘shimcha qiymat zanjirlari bo‘yicha yangi ichki rezervlarni aniqlashga ko‘maklashadi.

Prezident topshirig‘iga ko‘ra, 1-sentyabr-gacha har bir tumanning sanoat salohiyati to‘liq o‘rganilib, yangi dasturlar ishlab chiqiladi. “Aql markazlari” tomonidan tayyorlangan har bir ilmiy tavsiya qo‘g‘ozda qolmay, amaliyotga joriy etilishi shartligi qat’iy belgilandi. Bu jarayonni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun davlat byudjetidan viloyatga 4,5 trillion so‘m ajratildi, kichik va o‘rta biznes uchun esa yana 6,5 trillion so‘mlik resurs yo‘natirilmoqda.

Iqtisodiy o‘sishning pirovard maqsadi – aholi farovonligidir. Yil yakuniga qadar Namangandagi 80 ming aholini doimiy ishga joylashtirish, 314 ming nafar fuqaroning daromadini oshirish, 21 ming oilani kambag‘allikdan chiqarish vazifasi qo‘yilgan. Dastlabki 5 oyda 23,5 ming kishi band qilindi, 8 mingdan ziyod oila kambag‘allikdan chiqarildi. Biroq davlat rahbari ayrim tumanlarda ko‘rsatkichlar hamon pastligini tanqid qilib, mutasaddilarga ish samarasini oshirishni topshirdi.

Joriy yilda Namangan viloyatiga 5 milliard dollar xorijiy investitsiya jalb qilish, eksportni esa 1,2 milliard dollarga yetkazish reja qilingan. Quvonarlisi, yaqinda o‘tgan Toshkent xalqaro investitsiya forumi doirasida viloyat bo‘yicha 3 milliard dollarlik 43 ta yirik kelishuvga erishildi. Eksportni tizimli yo‘lga qo‘yish uchun Namangan misolida ilk bor “Yagona eksport ekotizimi” sinovdan o‘tkaziladi. Bu tizim mahsulot ishlab chiqarishdan tortib, standartlashtirish,

sertifikatlash, qadoqlash, logistika va boxxona rasmiylashtiruvigacha bo‘lgan barcha jarayonlarni yagona zanjirga birlashtiradi.

Keling, hududning yaqin tarixiga nazar tashlasak. Bir yodga olib ko‘ring, yaqin-yaqingacha viloyatda ko‘zga ko‘ringan korxonani topish amrimahol edi. O‘n yil oldin ham Namanganning sanoati yaxshi rivojlangan, degan balandparvoz gaplar matbuot sahifalarini bezasa-da, aslida barmoq bilan sanarli ishlab chiqarish korxonasi bor edi. Iqtisodiy tahlillarga nazar tashlasak, Namangan uzoq emas 7-8 yil muqaddam iqtisodiy ko‘rsatkichlari eng quyi o‘rinlarda turadigan, kambag‘allik darajasi yuqori, muammolar oshib-toshib yotgan viloyat sanalardi. Iqtisodchilar titi bilan aytganda viloyat ko‘p yillar dotatsiyada – davlat ta‘minotida bo‘lgan, o‘z aravasini o‘zi torta olmagani. Bugun bu viloyatga tashrif buyurgan kishi shiddatli yangilanishlar fonida Namanganda yorqin, jozibador muhit qaror topganiga guvoh bo‘ladi. Dasturxonlar to‘kinligi, mehnatga yarasha rohat, yetarlicha rag‘bat, ko‘tarinki kayfiyat.

Namangan – nafaqat gullarga burkangan o‘lka, balki mehmondo‘st va mehnatkash xalq yashaydigan zamindir. Namangan o‘zining go‘zalligi, boy tarixi va madaniyati bilan O‘zbekistonning faxriga aylangan. Viloyatning yuksak natijalari osmondan tushmaganini yaxshi bilamiz. Buning zamidida katta siyosiy iroda, donishmandlik, uzoqni ko‘ra bilish, adolati boshqaruv va kuchli iqtisodiy tahlil mujassam.

O‘ktamjon HAMRAALIYEV,
sharhlovchi



Boshlanishi 1-sahifada.

Shakllangan muharrir – noyob mutaxassis. Kerak bo‘lsa, u davlat va jamoat arbobi, qomusiy olim, til posboni, fidoyi ma’rifatparvar. Aynan ma’rifatparvar istilohini eslab qoling. Zero, o‘zbek matbuotining tug‘ilishi va qadam olishi mana shu g‘oya atrofiga qurilgan.

Bir asrdan mo‘lroq tarixga ega zamonaviy o‘zbek matbuotida jasoratli, halol va alloma muharrirlar va... boshqalar bor. Xususan, keyingi 20 yillikda matbuotda mahobatli sarlavha darajasidagina jasoratga ega, matnning eng cho‘g‘li-taftli qismini yulib oladigan, o‘zining ham, so‘zining ham jamiyatga ta’siri past nochor muharrirlar ko‘paydi. Aynan shunday silliq-royish muharrirlarning kasriga oxirgi o‘n yillikda matbuot ochiqlik siyosatini deyarli his qilmadi, maydon ba’zan – tahlildan yiroq, tumtaroq matnlar bilan xalqimizni dovdiratib yurganlarga boy berildi.

Nihoyat, savol shunday: bugun ancha erkin muhitda ijod qilayotgan avlod yaqin o‘tgan zamonlar qahramonlari – so‘z dehqonlarining jasoratga to‘la mehnatiga qanchalik baho bera oladi? Umuman, muharrir kim o‘zi: mansabdormi, matn tuzatuvchimi yoki o‘z zimmasiga katta ijtimoiy mas’uliyat olgan faol fuqaro? Asosiy savol esa bunday: muharrirlar shaxsiga qanday mezonlar bilan yondashmoq kerak?

Bu savollarga javob berish uchun o‘zbek matbuoti shakllangan tarixiy sharoitni, uning ortida turgan siyosiy bosimlar, til o‘zgarishlari, ma’naviy burilishlar va jamoat fikridagi evrilishlarni hisobga olish lozim.

Birinchidan, zamonaviy o‘zbek matbuoti tayyor adabiy va institutsional muhitda paydo bo‘lgani yo‘q. XIX asr oxirida Turkistonda mustamlaka ma’muriyati an’anaviy ta’lim, vaqf mulklari, madrasa va mahalliy ma’rifat tizimiga qaqshatqich zarba berdi. Chor Rossiyasi tomonidan 1886-yili qabul qilingan “Turkiston o‘lkasini boshqarish to‘g‘risidagi Nizom”da vaqf mulklari masalasi alohida tartibga solindi, bu holat an’anaviy maktab va madrasalar faoliyatini moliyaviy cheklab qo‘ydi.

Natijada, yuzaga kelgan iqtisodiy tanglik sharoitida madrasalar atrofida shakllangan ilmiy-adabiy muhit ham izdan chiqdi. Hoshiyaxonlik, sharhnavislik, munozara madaniyati, qo‘lyozma matnlar bilan ishlash, ustoz-shogird an’anasi kabi ko‘p asrlik intellektual maktablar zaiflashdi. Aslida, ana shu muhit zamonaviy jurnalistikamiz uchun tabiiy kurtak bo‘lishi zarur edi.

Keyingi bosqichlarda alifbo o‘zgardi, til o‘zgardi, eski adabiy tildan hozirgi o‘zbek adabiy tili me’yorlariga o‘tish jarayoni boshlandi. Demak, o’sha davr muharrirlari ikki tomonlama bosim ostida ishlagan. Bir tomondan, ular davrning ijtimoiy-siyosiy talablariga moslashishga majbur edi. Ikkinchi tomondan, yangi adabiy til, yangi tahrir madaniyati, yangi o‘quvchi va yangi matbuot uslubini shakllantirish ham aynan ularning zimmasiga tushgan.

Shuning uchun Behbudiy, Munavvar qori, Avloniy, Cho‘lponlar avlodiga faqat “gazeta-jurnal chiqargan ziyolilar” degan baho o‘ta jo‘n qarash bo‘lur edi. Ular an’ana va zamonaviylik, ko‘p asrlik axborot almashuv muhiti va zamonaviy yangi matbuot maydoni o‘rtasida ko‘prik bo‘lgan shaxslar.

Ikkinchidan, o‘tgan asr davomida “millatparvarlik”, “milliy birlik” tushunchasining o‘zi ham bir necha marta ma’no o‘zgartirdi. Avval Turkiston xalqlari birligi g‘oyasi birinchi o‘ringa chiqdi. Keyin milliy-hududiy chegaralanish natijasida, yangi siyosiy makonda yashovchi xalqlar, elatlar, urug‘lar birligi ustuvor ahamiyat kasb etdi. Ikkinchi Jahon urushi yillarida frontga ko‘mak, g‘alaba uchun safarbarlik g‘oyasi xalqni birlashtiruvchi asosiy g‘oyaga aylandi.

1960–1970-yillarga kelib “shaklan milliy, mazmunan sotsialistik” madaniyat tamoyili doirasida yagona sovet xalqi g‘oyasi ustuvor bo‘ldi. 1980-yillarda esa o‘zlikka qaytish, tarixiy xotirani

tiklash, milliy qadriyatlarga yangicha nazar tashlash ehtiyoji kuchaydi. Mustaqillik davriga kelib, vatanga muhabbat, milliy davlatchilik, ozodlik va taraqqiyot yo‘lida birlashish g‘oyasi matbuotning markaziy mavzusiga aylandi.

Uchinchidan, o‘zbek muharrirlarining jasoratini tuzumga nisbatan siyosiy murosasizlik yoki keskin tanqidiy maqolalar bilangina o‘lchab bo‘lmaydi. Muharrirning jasorati – siyosiy konfliktga o‘zini bag‘ishlashdagina emas, ba’zan jim, izchil, yillar davomida qilinadigan mehnatda – to‘g‘ri mavzu tanlash, kuchli mualliflarni jalb etish, yangi avlodga ma’naviy murabbiylik qila olish, xalqning fikrlash darajasini yuksaltirishga qo‘shgan hissasida yaqqol namoyon bo‘ladi.

Ana shu mezonlar bilan qaraganda, afsonaviy o‘zbek muharrirlari – murabbiy, novator, o‘z davri uchun jamiyatning ma’naviy qiyofasini belgilovchi, siyosiy tuzumga baho beruvchi insonlardir.

Turkistonning XX asr boshidagi porloq yulduzi – Mahmudxo‘ja Behbudiy zamonaviy “ilmi tahrir”ning otasi deyish mumkin. U milliy matbuotimizning ma’naviy me’morlaridan edi. Behbudiy “Samarqand” gazetasi chiqardi, keyin “Oyina” jurnaliga asos soldi. “Samarqand” gazetasi o‘zbek va tojik tillarida haftada ikki marta chop etilgan bo‘lsa, “Oyina” 1913-yildan boshlab Behbudiy faoliyatining eng muhim minbarlaridan biriga aylandi.

Aynan “Oyina” degan nomning o‘zi chuqur mazmunga ega. Oyina – odam o‘z yuzini ko‘radigan narsa. Behbudiy ham o‘z jurnali orqali millatga oyna tutdi. U og‘riqli savollarni o‘rtaga tashladi: nega ortda qoldik, nega maktablarimiz zamondan orqada, nega ilmdan uzoqlashdik, nega millat o‘z haq-huquqini anglamaydi? Shu ma’noda, u matbuotni oddiy xabar tarqatish vositasi sifatida emas, millatni uyg‘otuvchi qurol sifatida ko‘rdi.

Alohida ta’kidlash joizki, mahalliy xalqqa nisbatan ishlatilgan kamsituvchi atamalgarga qarshi javoblar ham “Oyina” sahifalarida chop etilgan. Xususan, Behbudiyning “Sart so‘zi majhuldir” maqolasi hukmron siyosiy doiralr qarshisida milliy izzat-nafsi dadi himoya qilgani bilan e’tibordir.

Yana bir muhim jihat bor. Ustoz Behbudiy o‘zbek muharrirlik maktabining asosiy ustunlaridan biri sifatida baholashimiz faqat uning alg‘ov-dalg‘ov, notinch va qaltis zamonlarda millat oriyati uchun qo‘lida qalam bilan kurashgani uchun emas. Bunday baho berishga yana bir necha jiddiy asos bor. To‘g‘ri, undan oldin ham “Taraqqiy”ni chiqargan Ismoil Obidiy, “Xurshid” gazetasi asos solgan Munavvar qori Abdurashidxonov, “Shuhrat” gazetasi o‘chgan Abdulla Avloniy kabi matbuot fidoylari bor edi.

Biroq, masalaga kengroq qaraganda, ilk milliy gazetalarning ko‘pi qisqa umr ko‘rdi. Ular jasorat ko‘rsatdi, ammo tahririyat jamoasi va tahrir maktabi shakllanmadi. Milliy matbuot asoschisi va tahrir maktabi asoschisi boshqa-boshqa tushunchalardir.

Behbudiyning ustun jihatlar shu nuqtada yaqqol seziladi. U noshir va dovyurak publitsist bo‘lishdan tashqari, matbuotda tizim yaratgan, tahrir maktabi, barqaror jamoa, faol mualliflar guruhini shakllantirgan tashkilotchi muharrir edi. “Samarqand” gazetasi va “Oyina” jurnali shu jihatdan muhim.

Xulosa qilib aytganda, Mahmudxo‘ja Behbudiy mavzu tanladi, til tanladi, uslub tanladi, maqsad tanladi va eng muhimi, milliy matbuotga yo‘nalish berdi. Bu yo‘nalish ma’naviyat masalalari bo‘lib, hatto zamonaviy gazeta va jurnallarning mundariyasi hamon Behbudiyga tayanadi: ta’lim, til, millat, din, zamon, huquq, tarix, teatr, maktab, axloq, dunyoqarash...

Ma’rifatparvarlik g‘oyasi, milliy uyg‘onish orzusi bilan to‘yingan bu yo‘nalish o‘zbek matbuotining o‘zak g‘oyasi bo‘lib qoldi. Bugun ham gazetalar jamiyatni uyg‘otish, ilm-ma’rifatga chaqirish, milliy g‘urur va mas’uliyatni asrash vazifasini bajarmoqda. Matbuotimizdagi bu muqaddas an’ananing negizida Behbudiy asos solgan muharrirlik maktabi turadi.

Behzod QOBULOV

Sho‘ylaki, jarida oyinayi jahonnomadur. Gazet o‘quydurgan kishi dunyodagi barcha xabar va hodisalarni va har toifaning taraqqiy va tanazzuli va oni sabab va illatini, o‘z din va millatig‘a qayu toifa do‘st, qayu toifa dushmanligini bilur. Hayoti ijtimoiyasiga na lozimdur bilur.

Mahmudxo‘ja BEHBUDIYning “Gazet nadur?” maqolasidan.



Sahna ortidagi FIDOYILAR

Boshlanishi 1-sahifada.

BURGUT KO'ZI

Nasiba ABDULLAYEVA,
“Yangi O'zbekiston” gazetasi
musahhihi:
– Ko'pchilik musahhihlikni faqat nuqta va vergullarni to'g'rilash, deb tasavvur qiladi. Aslida esa, bu gazetaning mavqeyiga javob beradigan mas'uliyatli kasb. Matndagi gap qurilishi, takrorlar, uslub, punktuatsiya, sarlavhalar va sahifadagi eng mayda detallargacha e'tibor qaratiladi. Shu bois, musahhihga burgut ko'zi kerak, deymiz.
“Yangi O'zbekiston” gazetasida to'rt



nafar musahhih faoliyat yuritadi. Har kuni ikki nafar xodim navbatchilik qilib, sahifalarni bir necha bor qayta ko'zdan kechiradi. Hatto, gazeta bosmaxonaga topshirilgach ham, mas'uliyat hissi bizni tark etmaydi. Har bir sahifa kamida besh-olti marta o'qiladi. Ba'zan birgina nuqta yoki harf xatosi sabab bo'lib, sahifa qayta ko'rib chiqiladi. Uyga borgandan keyin ham ko'ngil xotirjam bo'lmaydi. Yana biror xato o'tib ketmadimikan, degan o'y bilan sahifalar xayoldan chiqmaydi. Chunki gazetaning obro'si va jamoaning mehnati har bir satrning bexatoligiga bog'liq.
Musahhih kasbining eng mas'uliyatli jihati aynan e'tibor va hushyorlikni bir lahz ham yo'qotmaslikdir. Sahifa o'qiyotganda barcha tashvishlar ikkinchi darajaga tushadi. Ba'zan ko'z aldaydi, ammo yana bir bor sinchiklab qaraganingizda kichik xatoni payqab qolishingiz mumkin. Shu bois, bu kasb katta sabr, mas'uliyat va sinchkovlikni talab qiladi.

Ishga har kuni bayramga kelgandek kirib kelaman. Ba'zan tong otguncha ishlashga to'g'ri keladi, ammo bundan hech qachon charchamayman. O'quvchiga manzur bo'ladigan gazeta tayyorlashning o'zi biz uchun katta quvonch.

Fursatdan foydalanib, kelayotgan kasb bayramimiz bilan barcha ommaviy axborot vositalari xodimlari va hamkasblarimga sihat-salamatlik, ijodiy muvaffaqiyat va zafarlar tilab qolaman.

DIZAYN – NASHRNING YUZI

Erkin YODGOROV,
“Jadid” va “Hurriyat”
gazetalarining
sahifalovchi-dizayneri:
– Men gazeta o'qishni juda yaxshi ko'raman. Bolalikdan mahalliy nashrlardan tortib, xorij gazetalarigacha kuzatib borardim. Shu qiziqish vaqt o'tib, meni gazeta sahifalash va dizayn sohasiga olib kirdi.
Har bir maqolaga alohida yondashish



kerak. Avvalo, materialni boshidan oxirigacha o'qib chiqaman. Shundan keyin uning mazmuni va ruhiga mos surat, sarlavha shakli va sahifa yechimlarini tanlayman. Siyosiy, ijtimoiy, sport yoki yengil mavzudagi maqolalarning har biri o'ziga xos yondashuvni talab qiladi.

Dizayn – gazetaning yuzi. Shunday nashrlar borki, ularning dizayni yillar davomida deyarli o'zgarmaydi. O'quvchi gazetani uzoqdan ko'riboq taniydi. Bu o'ziga xos uslub va an'anani saqlab qolishning natijasidir. Menimcha, dizayn qanchalik sodda bo'lsa, shunchalik

“Matbuot – tilning qiblası.
Asqad MUXTOR

jozibali bo'ladi. Turli ortiqcha jimjimalardan qochish, maqola mazmuni bilan sahifa ko'rinishini uyg'unlashtirish muhim.

Gazeta sahifalashda surat tanlash ham alohida mas'uliyat talab qiladi. Har bir tasvir maqola mazmunini to'ldirishi, biroq estetik me'yorlardan chetga chiqmasligi kerak. Hamma narsani ham surat orqali ifodalab bo'lmaydi va ba'zan bunga hojat ham yo'q. Muhimi, tasvir maqolaning mohiyati bilan hamohang bo'lishi kerak. O'quvchi materialning mazmunini tezroq anglashi va unga qiziqishi uchun surat ham xizmat qilishi zarur.

Ishimizning eng zavqli jihati – tayyor bo'lgan gazetani qo'lingizga olib, sahifalarni varaqlaysiz va o'z mehnatingiz mahsulini ko'rasiz. Menimcha, dizayner uchun bundan ortiq quvonch bo'lmasa kerak.

DUNYOGA BOSHQACHA NIGOH

Mardonbek ZUNNUNOV,
O'ZMTRK “Toshkent”
teleradiokanali operatori, “Shuhrat”
medali sohibi:



– Teleoperatorlar dunyoni boshqacha ko'z bilan ko'radi. Oddiy inson e'tibor bermaydigan manzarada ham biz qiziqarli kadrlarni ko'rishga harakat qilamiz. Kasbimiz tufayli dunyo kezamiz, taniqli insonlar bilan muloqot qilamiz, turli ijodiy jarayonlarning bevosita guvohi bo'lamiz. Bu kasbning eng qiziqarli jihatlaridan biri ham shunda.

Hozir tomoshabin e'tiborini ushlab turish oson emas. Buning uchun kadrlarda yorug'lik, rakurs va tasvir yechimlariga yangicha nigoh zarur. Shu sababli, operator doimo o'z ustida ishlashi kerak. Men chet el telemahsulotlarini kuzataman, tajribali mutaxassislarning ish uslublarini o'rganaman. Yangi texnikalar kirib kelayotgan bir paytda bilim olishdan uyalmay, mutaxassislardan so'rash kerak. Chunki bilimning kaliti – savolda.

“Matbuot tarixi – Uyg'onish davri tarixining bir bo'lagidir.
HOJI MUIN

Teleoperatorning mahorati ko'pincha tomoshabin ko'ziga tashlanmaydi. Biroq tasvir sifati, yorug'lik va kadrlarning estetik yechimi aynan operatorning kasbiy mahoratiga bog'liq. Ba'zan insonlar “meni chiroyli qilib oling”, deb iltimos qilishadi. Ana shunday paytda operatorning tajribasi, didi va texnik imkoniyatlardan to'g'ri foydalanishi katta ahamiyatga ega bo'ladi.

Yaqinda qirq yil bo'ladi ish boshlaganimga. Charchagan paytlar bo'ladi, albatta. Lekin kamerani qo'lga olganimdan keyin butun kayfiyat o'zgaradi. Ustozlarimiz o'rgatganidek, efrigga uzatilgan tasvirni

ko'rganimda, avvalo, o'zim mamnun bo'lishim kerak. Operator o'zi olgan tasvirdan zavq olmasa, tomoshabin ham undan zavq ololmaydi.

Televideniya har kuni yangi jarayon, yangi ijodiy izlanish bor. Shu sababli, charchoq o'tkinchi, kasbga bo'lgan mehr esa doimiydir.

MAS'ULIYAT YUKI

Abdukirim AHMAD XO'JAYEV,
“Madaniyat va ma'rifat” telekanali
rejissyori:



– Rejissyorning vazifasi faqat tasvir jarayonini boshqarish bilangina cheklanmaydi. Boshlovchilarning nutqiga e'tibor berish, tasvirchilar, operatorlar, muallif va muharrirlar bilan hamkorlikda ishlash, ssenariy g'oyasini ekranda to'laqonli aks ettirish muhim. Televideniye bu katta jamoaning hamkorligi samarasidir.

Kichik lavha yoki yirik maxsus loyiha bo'ladimi, ularning har biriga birdek mas'uliyat bilan yondashamiz. Har bir ko'rsatuv ijodiy o'sish va yangi qirralarni namoyon etish uchun imkoniyatdir. Bu jarayonda rejissyor assistentidan tortib muharrir, operator va tasvirchilargacha, barchaning hisssasi bor. Tadbir yoki voqea bir lahzada bo'lib o'tadi. Uni qaytarib bo'lmaydi. Shuning uchun har bir jarayonga tayyorgarlik va aniq g'oya bilan kirishish kerak. Ayniqsa, informatsion dasturlarda tezkorlik va voqealarni to'g'ri yoritish katta ahamiyatga ega.

Bizning mehnatimiz ko'pincha tomoshabiniga ko'rinmaydi. Rejissyor ham, tasvirchi ham kadr ortida ishlaydi. Ammo tayyor mahsulot sifatli chiqib, maqsadga erishilganda, tomoshabin e'tirofiga sazovor bo'lganda, inson o'z mehnatidan mamnun bo'ladi. Bu kasbning eng katta mukofoti ham shunda.

JONLI EFIR GASHTI

Eldor MANNONOV,
ovoz rejissyori:



– Faoliyatimiz asosan jonli efirlar, kechki dasturlar va turli ko'rsatuvlar bilan bog'liq. Ovoz rejissyorining zimmasida katta mas'uliyat bor. Ayniqsa, jonli efir vaqtida hushyor bo'lish talab etiladi. Boshlovchilar, mehmonlar, musiqalar, lavhalar – bularning barchasi ovoz jihatidan nazorat qilinadi. Ovozning baland-pastligi, uyg'unligi va sifatiga javobgarlik bizning zimmamizda bo'ladi.

Yildan yilga yangi dasturlar, yangi uskuna va texnologiyalar paydo bo'lmoqda. Agar mutaxassis o'z ustida ishlamasa, rivojlanishdan ortda qolib ketadi. Shu sababli, texnikani mukammal bilish, yangi dasturlarni o'rganish va zamon bilan hamnafas bo'lish juda muhim. Ishingizni sevsangiz, qiyinchilik sezilmaydi. Men uchun jonli efirning o'zi alohida zavq bag'ishlaydi. Undagi mas'uliyat, hayajon va o'ziga xos adrenalinni yaxshi ko'raman. Shu jihatlar bilan kasbim menga juda yoqadi.

Vasila HABIBULLAYEVA
yozib oldi.

27-IYUN – MATBUOT VA OAV XODIMLARI KUNI

Matbuotning ilk kurtaklari qadimgi Rimda nish urgan deyiladi. Miloddan avvalgi I asrda Yuliy Sezar buyrug'i bilan to'rtburchak sopol yoki taxtaga muhim xabarlar, voqea va qonunlarni yozib, aholiga tarqatish yo'lga qo'yilgan. “Acta Diurna” (“Kundalik voqealar”) deb atalgan bu tizim dunyodagi ilk qo'lbola gazeta hisoblanadi. Sharqda, xususan, qadimgi Xitoyda ipak qog'ozga yozilgan “Dibao” nomasi orqali saltanat xabarlar tarqatilgani ma'lum.



BIRINCHI OMIL

Kishilik jamiyati paydo bo'libdiki, axborot uzatish, voqea-hodisalarni bayon qilish va ijtimoiy fikrni shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj hamisha kun tartibida. Yozuvning ixtiro etilishi va buning natijasida yozma adabiyotning paydo bo'lishi axborot almashinuvi sohasida chinakam keskin burilish yasadi.

XV asrning o'rtalarida (1440-yillar) logann Gutenberg tomonidan kitob bosish dastgohining yasaliishi insoniyat tarixida axborot inqilobi bo'ldi. Natijada axborotni ommaviy va tezkor tarqatish imkoniyati tug'ildi. Dunyodagi ilk muntazam bosma gazeta 1605-yilda Strasburgda nemis tilida chop etilgan. XVII-XVIII asrlarda Yevropa va AQSHda siyosiy, iqtisodiy va badiiy nashrlar ko'payib, jurnalistika mustaqil kasb sifatida shakllandi.

O'zbek milliy matbuoti jahon jurnalistikasidan farqli o'laroq, juda og'ir, murakkab va kurashlarga boy ijtimoiy-siyosiy sharoitda, milliy-ozodlik harakatlari zaminida dunyoga keldi.

XIX asr oxirlarida maydonga chiqqan jadid ma'rifatparvarlari o'zlarining milliy va mustaqil “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Sadoyi Turkiston” kabi gazetalarini chop etdilar va ularni millat ozodligi yo'lidagi qudratli qurolga aylantirdilar. Ular matbuotni millatni g'afolat uyqusidan uyg'otish, islohotlar qilish va mustaqillikka erishishning bosh omili deb bildilar. Ulug' ma'rifatparvar Mahmudxo'ja Behbudiyning: “Ma'rifat uchun birgina maktab kifoya qilmaydi. Zamon va dunyo voqealari bilan tanishib bormoq kerak. Millat va vatanning ahvolidan, kundalik hayotidan ogoh bo'lmoq lozim. Millat uchun oyna kerak, toki undan o'z qabohatini ham, malohatini ham ko'ra olsin”, degan so'zlari milliy jurnalistikamizning bosh g'oyasiga aylandi.

1906-yil 27-yunda ilk milliy va mustaqil gazeta – Ismoil Obidiy muharrirligidagi “Taraqqiy” gazetasi chop etildi. (Ana shu sana sharafiga mamlakatimizda “Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni” nishonlanadi).

Shu bilan birga Munavvar qori Abdurashidxonov boshchiligida “Xurshid”, “Najot”,

“Global ijtimoiy-siyosiy jarayonlar beqiyos shiddat bilan o'zgarayotgan hozirgi o'ta murakkab va notinch dunyoda ommaviy axborot vositalarining o'rni va ta'siri har qachongidan ham kuchli ahamiyat kasb etayotganini hammamiz sezib-anlab turibmiz.
Shu ma'noda, bepoyon mediaolamda xolis va haqqoniy axborot tarqatish bilan birga, milliy manfaatlarimizni qat'iy himoya qiladigan jurnalist ahlining mashaqqatli mehnatini muqaddas sarhadlarimizda sergak turgan Vatani posbonlarining jasoratiga qiyoslasak, o'ylaymanki, o'rinni bo'ladi.

Shavkat MIRZIYOYEV

Behbudiyning “Oyina” jurnali dunyoga keldiki, bu minbarlar Fitrat va Cho'lpon kabi otashnafas millatparvarlar uchun millat ongida inqilob yasash imkonini berdi. Shuningdek, Mahmudxo'ja Behbudiy publitsistikadan ilhomlanib Munavvar qori, Avloniy kabi o'zbek milliy jurnalistikasi bayroqdorlari maydonga chiqdi.

Sho'rolar davrida matbuot qattiq senzura va kommunistik mafkura nazorati ostiga olindi. Biroq shunga qaramay, bu davrda o'zbek tilining sofligini saqlash, adabiy va madaniy merosni asrash yo'lida fidokorona xizmat qilgan nashrlar paydo bo'ldi. “Qizil O'zbekiston” (hozirgi “O'zbekiston ovozi”), “Yer yuzi”, “Mushtum”, “Sharq yulduzi” kabi nashrlar professional jurnalistlar maktabini shakllantirdi.

Keyingi yillarda Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida olib borilayotgan ochiqlik siyosati o'zbek jurnalistikasiga yangi nafas olib kirdi. Zamonaviy o'zbek jurnalistlari va blogerlari bugun jamiyatdagi korruptsiya, byurokratiya, ijtimoiy va ekologik muammolarni dadil tahlil qilmoqdalar. Davlat idoralarining xalq oldidagi hisobdorligini ta'minlashda OAV haqiqiy ko'pri va nazoratchiga aylandi. Bugun tezkor va multimediali internet nashrlari (Kun.uz, Daryo.uz, Gazeta.uz va boshqalar) qamrovi kengaydi. O'zbekiston

mediamakonida Telegram, YouTube va Facebook kabi platformalar eng faol axborot uzatish maydoniga aylandi. Soha uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash maqsadida O'zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti tashkil etildi. Bu jurnalistikada xalqaro standartlar asosida ishlaydigan yangi avlod jurnalistlarini tarbiyalash imkonini bermoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlar davri axborot makonidagi an'anaviy monopoliyani butunlay parchalab tashladi. Ilgari axborot tarqatish huquqi faqat rasmiy gazeta, radio va televideniye ixtiyorida bo'lgan bo'lsa, bugun qo'lida smartfoni va fikri bor har bir inson jamoatchilik ongiga ta'sir ko'rsata oladigan kuchga aylandi. Bugungi mediaolamda ikkita tushuncha – “blogger” va “kolumnist” atamallari tez-tez tilga olinmoqda. Blogger internet tarmog'idagi shaxsiy sahifasida (blogida) muntazam ravishda matnli, vizual foto yoki video kontent yaratuvchi va o'zining shaxsiy hayoti, qiziqishlari yoki ijtimoiy voqealarga munosabatini bayon qiluvchi shaxs bo'lsa, kolumnist OAVda (gazeta, jurnal, nufuzli veb-sayt) o'z shaxsiy mualliflik ruknini (“ustun”ini) yurituvchi, muayyan bir soha bo'yicha professional tahlilchi, ekspert yoki jurnalistdir.

Bloggerlik – juda erkin va dezentralizatsiyalashgan soha. Blogger hech qanday tahriyat senzurasiga yoki an'anaviy jurnalistik standartlarga – masalan, xolislik, ikki tomon fikrini berish kabi burchlarga bo'yusunmaydi. U o'z auditoriyasi bilan to'g'ridan-to'g'ri, juda oddiy, samimiy va ba'zan hissiyotlarga boy tilda muloqot qiladi. Mamlakatimizda, ayniqsa, Facebook, Instagram, Telegram-bloggerlik juda kuchli rivojlangan. Ular jamiyatdagi korruptsiya, monopoliya va ijtimoiy muammolarni birinchilardan bo'lib va tezkorlik bilan olib chiquvchi kuchga aylandi.

Kolumnist voqeani shunchaki xabar qilmaydi, balki uning kelib chiqish sabablarini, oqibatlarini ilmiy, falsafiy yoki iqtisodiy jihatdan chuqur tahlil qiladi. Uning maqolalari mualliflik nuqtayi nazariga, chuqur bilim va obro'ga tayanadi. Kolumnistlar ko'pincha jamiyat elitasi, olimlar va siyosatchilarga ta'sir o'tkaza oladigan shaxslardir. Bloggerlar voqeani tezkorlik bilan vizual tarzda dunyoga e'lon qiladi. Kolumnistlar esa ushbu tezkor voqeaning zamirida nima yotganini, uning e'tangri kunimizga qanday ta'sir qilishini tahlil qilib beradi. Bugun haqiqiy blogger va kolumnistlar an'anaviy jurnalistikaga soya solmay, balki uni transformatsiya qilib, yangi hayotiy nafas bermoqda.

Jurnalistikaning kelajagi faqat yangilik yetkazish emas, balki fikr va tahlil kurashiga bog'liq. Shu ma'noda, bloggerlikning tezkorligi va samimiyati, kolumnistikning intellektual chuqurligi va mas'uliyati birlashgan joyda kelajakning eng muvaffaqiyatli media tizimi barpo bo'ladi. O'zbekistonda ham ushbu ikki kuch jamiyatni isloh qilish, adolat va so'z erkinligini ta'minlashdagi eng asosiy harakatlantiruvchi kuch sifatida o'z o'rini yanada mustahkamlashi shubhasiz.

Bugun dunyo sun'iy intellekt va neyro-tarmoqlar davriga kirdi. Sun'iy intellekt va texnologiyalar, siyosiy tuzumlar qanchalik o'zgarmasin, jurnalistikaning bosh missiyasi o'zgarishsiz qoladi. Bu – haqiqatni izlash, jamiyatga xolis va adolatli axborot yetkazish hamda inson qadrlari himoya qilishdir. SI soniyalarda yozishi, yangiliklarni tahlil qilishi mumkin. Biroq u hech qachon hissiyotkasi, savqi tabiiyiga suyanan talqin jurnalistikining jasoratini, voqea joyidagi hayajon va insoniy tuyg'u o'rini bosa olmaydi.

Yangi O'zbekiston jurnalistining bosh vazifasi – ogohlik qo'ng'irog'ini chalishdir. Faqat bu qo'ng'iroq o'ziga ommani qaratish uchun emas, balki tevarak-atrofga, o'zlikka, asiyatga qarashga va xulosa chiqarishga chorlaydigan bong bo'lmo'g'i kerak. Qolaversa, xalqaro maydon va yurtimizda yuz berayotgan voqea-hodisalarga faol va xolis munosabat bildirib, aholini haqqoniy axborot bilan ta'minlash ham ana shu qo'ng'iroq yuraklarga bog'liq. Jadid peshqadamlaridan Hoji Muin: “Matbuot bir millatni uyg'otish uchun birinchi o'mildir”, degan edi. Bugungi jurnalistika millatni mudrashiga yo'l qo'ymaydigan omil bo'lishini zamon talab qilyapti.

Biz ham ogohlik qo'ng'irog'i jarangi tinmasin, uni ko'targan qo'llar tolmasin deb niyat qilamiz.

Iqbol MIRZO



TERAN TOMIRLAR



Nurmuhammad AZIZ

“Kiprigi ko'ksiga soya solgan qiz”.
(Usmon Nosir)

Saratonning shamolida olov purkar,
Kapalakning qanotin kuydirar gulbarg.
Bog'larim-u tog'larimda javlon urgan
Jazirama – o'zim tutqun, xayol hurkak.

Kipriklaring soyasida salqinlasam!

Pechakgullar qovjiragan, qaqragan yer,
Teraklarning tomirlari zorlanar:

SU-U-U-UV.

Men ham tashna, senga yetmoq
zafarim deb,
Ich-ichimda telba tug'yon, telba orzu,

Kipriklaring soyasida salqinlasam!

O, harorat – jizza bo'lar dala-yu dasht,
Bunda iyul hukmfarmo – qahri qattiq.
Parizodam – hulvonafas, husni yakkash,
Ham oromdir, ham quvonch-u saodatdir,

Kipriklaring soyasida salqinlasam!

Ana oftob, qizdirilgan tandir tuproq,
Qo'l uzatsam, qirg'oqdagi toshmi-cho'g'mi?
Zangor fasl chechaklari za'faron chog',
Omon qolmoq uchun boshqa chora yo'qdir,

Kipriklaring soyasida salqinlasam!

OTA UY

Mo'jaz hovli,
Kattagina bog',
Darvozasi hech turmaydi berk.
Bunda kezib yurar bosh-adog'
Tog' havosin kiyib olgan Erk.
Bunda kesmas quyosh qo'lini
Ko'cha bo'ylab cho'zilgan devor.
Bunda turmas yurak zo'riqib,



Iroda UMAROVA

Ovoz chiqar yayrab, jarangdor.
Tepsang, qo'shning qilmas bezovta
Peshonasi tosh ostonalar.
Somonsuvoq badanlariga
Behi hidin sepgan xonalar.
Uchta sandiq, bir eski tancha –
Shudir xolos bisot degulik.
Dabdaba va buyum o'rniga
O'rnatilgan mehr, totuvlik.
Ota hovlim,
Toming chetida
Ayronekadi osilgan butoq –
Quchog'ingda turgani uchun
Mendan ko'ra baxtli,
Baxtliroq!..



Madina NORCHAYEVA

XUSH BORSIN

Qorachiqilarimdan uchadi
Polapon musicha – tomchilar.
Chaqinlar bedov ot – oqshomning
Kiftiga naqsh solar qamchilab.
Xush borsin.
Bir quchoq shafaqqul ko'tarib
Suratning qo'llari charchagan.
Kunlarni to'zg'itib yuborib
Oy uchib ketadi darchadan.
Xush borsin.
Ertaklar quyilgan qadahga

Lab bosib xayolga cho'kkan kim?
U hazin jilmayib yashagan
Tushlarni nomini yodladim.
Yo'llarni faslar chizmaydi
Yetolmay qismatning qa'riga.
U chiqib ketadi kechadan,
Bugundan, ertadan nariga.
Xush borsin.



Jamoliddin BADALOV

SOG'INDIM

Yuribman hozircha yer kurrasida,
Sharqiy yarimsharning kungurasida.
Umr o'rtasida...
E, xullasi-da
Yoshligimni, sho'x-sha'nlarini sog'indim!

Shafaq yolqinlanar terak bargida,
Bir mahalla bola o'yin dardida,
“Uyga, uyi yo'qlar tupka tagiga!”
“Landi-landi”, “ushlang”larni sog'indim!

Sog'indim, sog'indim, sizni bo'lakcha!
Siz-chi, dikir-dikir, shayton quloqcha!?
Parta chekkasiga chekib yurakcha
Bosh harflar qo'shganlarni sog'indim!

Qo'l va lab tegmagan pokiza qizlar,
Xayoli hayoli, hofiza qizlar,
Ozoda ko'chalar xotira sizdan
Shomda uyga shoshganlarni sog'indim!

Osmon to'la yulduz – sog'inar odam,
Nega endi tuyqus sog'inar odam?
Qayerdasiz, Yulduz?!
Sog'inar odam.
Xushbo'y, xushnud,
xush damlarni sog'indim!




Humoyun FATTOH

Ketdim, ko'zlaringda qolmoq uchunmi,
Qo'rqmasdan qo'l urdim buyuk bir ishga –
Yigirma yil zo'rg'a yig'gan kuchimni
Bir kunda sarf etdim xayrlashishga...

Albatta qaytaman dedimmi, raso,
Qaytaman sog'inching topganda yakun –
Tomchi yosh oqmasa, agar yig'lasang,
Men bergan gul ifor taratmagan kun.

Endi hech ketmaydi yo'lingdan xazon,
Endi og'ir kechar tunlarda tushing.
Sevgilim, menga ham bo'lmaydi oson,
Qayta olmaslikdan qo'rqaman, tushun!



Iroda RAHMONALIYEVA

Agar nurman, agar oftob
Va yo yog'du va yo mohtob,
Na bo'lsam ham manim yakto
Madorim bo'l...

Agar gulgun, agar durkun
Va yo so'lg'in va yo surgun,

“Yoshlarimizga milliy ruh va madaniy tarbiya
bermak yolg'iz milliy matbuot ta'siri ilagina hosil
bo'la olur.

“SADOYI TURKISTON” gazetasiidan.

ROMANDAN PARCHA

UMIDJON HIKOYASI

Bu yil oltinchini tugatish arafa-sidaman. Opam o'ninchini tugatyapti. Ishlarim besh. Ammo yomon bo'lgani, o'tgan yili sentyabrda onajonim yotib qoldilar. O'shandan buyon davolanadilar.

Boshida o'tib ketadi, deb be-parvo yurdilar. Oxiri bo'lmadi, bir kuni momom boshchiligidagi viloyat markaziga tekshirgani ketishdi. Juda jiddiy tekshiruvlardan o'tishibdi. Oxiri, ko'zoynakli novcha do'xtir, momomga tashxisni aytibdi. Nomi yomon kasallik. Tibbiyotda bu kasalning davosi topilgani yo'qmish.

Doktor, kasal o'tib ketganini, boshlangan payti, ehtimol, davolashning foydasi bo'lishi, nimadir qila olish mumkinligi, endi esa, faqat umrni uzaytirish uchuniga, davolab turish mumkinligini uqitiribdi. Momomning xolamga aytgan gaplaridan pay-qadam...

Yurak-bag'rimiz qon bo'ldi.

Onam hamma narsaga beparvo bo'lib qolgan. Negadir, afsusi yo'q. Mol-holni sotib, bir-ikki marta shifoxonada yotib davolandi. Momom ham yordam qildi.

Endi sotadigan narsa ham qolmadi. Bir necha oyki uyda, shiftga termilganicha kunni kech, kechni tongga ulab kun o'tkazmoqda. Uyqu yo'q. Opam boshida.

Darsga boraman, kelgach, unga kitob o'qib beraman. Mamnun tinglaydi. Uning yonidan jilgim kelmaydi. Iloji boricha xursand qilgim, ko'nglini ko'targim keladi. Yaxshi gaplardan gapiraman. Sho'xliklarni ancha bosilgan. Harna qozon qaynab turibdi. Baraka topgur qishloqdoshlar yo'qlashyapti. Mahallaning xotinlari ham kunda-shunda biznikida. Topganlarini olib kelishadi. Birov issiq non, boshqasi issiq ovqat, yana kim qatig'...

Hozir avvalgidek uzoq o'tirishmaydi, kasalni charchatmay deya, tez turishadi.

Hol-ahvol so'raydigan odamlar-niing bori yaxshi ekan.

Matluba momom ham deyarli shu yerda. U ham o'zini ancha oldirib qo'ygan. Lekin, nima qilsin? Chidaydi-da!

Bir kuni:

– Shu kunlarni ko'rguncha o'lib ketsam bo'lardi. Sen kasal bo'lguncha, menga shu dard yuqsa bo'lmasmidi, – deb ko'z yoshi qildi.

Onam siniq jilmaydi.

– Qo'ysangiz-chi, ona. Hammaning o'z qismati bor...

Momom ko'zyosh to'kadi. Ammo, na iloj?

Bugun ham qiziq gap topib keldi. Allaqaysi qishloqda bir tabib chiqqanmish, ko'p kasallarni davolayotganmish. Dorilari tabiiymish.

– Qo'yavering, menimcha, shart emasov, – onam javob qildi.

– Chiqmagan jondan umid, deyman-da! – momom xo'rsindi.

– Shart emas, – onam chuqur uh tortdi.

– Borib ko'rsak, yaxshi bo'larmidi?

– Ortiqcha, tashvish. Bilasiz-ku, yo'lga yaramayman. Charchayman.


Momom qiziga qarab, yurak-bag'ri ezilib ketgani sezildi.

KAROMAT HIKOYASI

O'tgan umrni sarhisob qilyapman. O'ylasam, achinadigan narsaning o'zi yo'q. Keldim, yashadim, ehtimol, ketish fursati ham yaqinlashayotgandir. Nega achinishim kerak. Inson umri shu-da! Bir kunmas-bir kun ketiladi! Bu yog'i qismat! Kimdir baxtli yashaydi, yana kim baxtsiz. Boshqa birov uzoq umr ko'radi, kimdir qisqa, yana birov tug'iliboq bu dunyo bilan vidolashadi... Inson umri, inson qismati...

Umrimiz savollardan iborat. Javob izlab-izlab yashaymiz. Ehtimol, javob ham topilar...

Kim bilsin. Ketiladigan dunyo uchun achinish shartmikin? Yo'q, arzimaydi. Lekin, bolalarim hali juda yosh-da! Hech bo'lmasa, Bahoroy voyaga yetganda ham boshqa gap edi. Shuning to'yini ko'rganim-da! Ha, mayli. Lekin, Umidjon-chi? Judayam yosh-ku! Keyin nima qilarkin? Bolalarim o'ksib qolishmasmikin? Xor bo'lishmasmikin? Hech bo'lmasa, otasi



tirik bo'lgandayam, boshqa gap edi. Suyanadigan odamlari bo'lardi. Harna-da! Balki, otasi uylanardi, u ayol qanday bo'lardi. Bolalarimga mehr berolarmidi? Yoki o'gaychilik qilarmidi? O'gaychilik ham yomon-da! U holda bolalarim ikki baravar ezilishmasmidi?! E, hayot! Judayam qiziq-da! U ayol yaxshi bo'lsa, o'ksishmasmidi? Bolalarimga mehr berolsa, yaxshi edi-ku!

Taqdirga, kadarga-da taslim bo'lganman. Jonim qanchalik og'rimasin, biror marta nolimadim. Doim tilimda shukur.

Tabiat ham ajib. Kecha qo'shni xotin qiziq gap aytib qoldi. Bir tabib echkiemar go'shti-yu ilon zahrini shifo uchun qo'llarmish. Tabiatning mo'jizalari qiziq. Eng xavfli narsa zahar – inson hayotini saqlab qolarmish. Bo'lishi mumkin, bu dunyo g'aroyibotlarga to'la-ku! Tabib shifo

– Buvimning aytishicha, siz ham she'r yozgan ekansiz-a, ona?
– Shunaqa desayam bo'ladi.
– Keyin nega yozmay ketgansiz?
– qiziqsinadi bolam.
– Keyinmi, bilmasam. Balki, sharoitdan, – javob qilaman.
– Yozaversangiz bo'lmasmidi?
– E, bizning taqdir... Qo'yaverasan. Ehtimol, she'r yozish uchun ham muhit kerak. Biz dala-yu paxtazorlarda go'zal shiorlar, she'r-lar yozdik, bolajonim. Eng go'zal bitiklarimni dalalarda yozdim.
– Nega muhit kerak? – ajablandi.
– Bilmasam, – o'ychan javob berdim.

– Ajoyib asarlar yozishingiz ham mumkinmidi?
– Ehtimol...
– Shaharga ketsangiz men tug'ilmasdim? – bu gapi qiziq eshitildi.

Yuzimda tabassum yugurdi.
– Bu nima deganing, aqlvoyim?!
– Aytaman-da, o'qirdingiz, she'r-lar yozardingiz...

– Meni tug'ishga vaqtingiz bo'lmasdi, demoqchimisan, – kulib gapirardim. – Bo'lishi mumkin edi. Lek... Men ortimdan eng ajoyib asarlar qoldiryapman, sen va opang.

– Ona, hozir men ham nimalardir zozyapman-ku! Bir kun kelib menam yozmay ketishim mumkinmi?

– Yo'q, bolajonim, sen mendek bo'lmaysan. Orzularingga yetasan. Sen yozasan. Ko'p narsa yoza-san. Hali sening yozganlaringni dunyo o'qiydi, bolajonim. Shuni niyat qilaman, bolajonim. Ilohim orzularingga yetgin. Sen eng baxtli bo'lasan, opang ham. Sizlar baxtli bo'lasizlar... Mening orzularimni amalga oshirasizlar.

Oraga biroz sukut cho'kdi. Uni men buzdin.

– Umidjon, bir kuni men o'lib qolishim mumkin. Shunda nima qilasan? – Yuziga e'tibor berdim. Biroz oqarib, keyin qizara boshladi.



Zikrilla MUHAMMAD

– Onalar ham o'ladimi? – ajablandi.
– Aytaman-da! Qiynalasmikan-san?

– Onalar, o'lmaydi-ku, aldaman, – tabassum qilishga urindi-yu, eplolmadi.

Ko'zim yoshlandi.
– Shunday bo'lib qolsa-chi? – ovozim bo'g'ildi.

– Men hali juda yoshman-ku, onajon.

– Taqdir-da, bolam, – xo'rsindim.

– Sizam yoshsiz, siz eng go'zal onasiz! Hali ko'p yashaysiz. Mana, momomni qarang, hali o'lmaganlar-ku!

– Nega bunaqa deysan?

– Aytaman-da, momom sizdan ancha kattalar-ku!

– Umr... Hammaniki har xil-da, bolajonim.

– Bilmadim, nima qilaman, ona?

Unda men yolg'iz qolib ketaman-ku!

– Opang, momong bor-ku?

– Sizning o'ringiz bo'lak-da!

– Xafa bo'lmayman, o'ksimayman, deya va'da berasan-a? – ko'zimdan tinmay yosh oqardi. – Va'da berasan-a?

– Meni qo'rqitmang, ona. – Ko'zlari yoshlandi. – Kitoblarda yozadi-ku, ko'p kasallar tuzalganini.

– Men ham tuzalyapman-ku, – ko'z yoshimni artidim. – Shunchaki, aytyapman-da!

– Men va'da berolmayman. Qo'rqaman, ona!



Boshlanishi 1-sahifada.

Ayni paytda, barcha sohalarida bo‘lganidek, yosh ijodkorlarni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha ham muhim ishlar amalga oshirilayotganiga barchamiz guvohmiz. Xususan, atoqli adiblar nomida ijod maktablari faoliyat olib bormoqda. Respublika yosh ijodkorlarining Zomin seminar-kengashi o‘tkazilmoqda. Iste’dodli ijodkorlarning birinchi kitoblari, yaqindan boshlab “So‘zmunchoq” ruknida ikkinchi kitoblari ham nashr etilib, ta’lim muassasalari va mahallalarga, harbiy qismlarga, keng jamoatchilikka beg‘araz tarqatilmoqda. “Do‘rmon bahori” xalqaro seminar-kengashida yurtimizda va qo‘shni davlatlarda yashab ijod qilayotgan yosh adiblar ishtirok etmoqda. Turkiy davlatlar yosh ijodkorlarining xalqaro forumi tashkil etilgani ham muhim ahamiyatga ega.

Faol ijod qilayotgan yoshlar Zulfiya nomidagi hamda “Mard o‘g‘lon” davlat mukofotlari, “Kelajak bunyodkori” medali bilan taqdirlanmoqda, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zoligiga qabul qilinmoqda. Uyushma qoshida “Onajonim, she‘riyat!”, “Umid”, “Dilko‘pri”, “Nigoh” to‘garaklari, “Xiyobon oqshomlari” deb nomlangan ijodiy davralar muntazam davom etmoqda.

Mana shunday imkoniyat va sharoitlar yoshlarimizning ijodiy kamoloti uchun muhim omil bo‘lib xizmat qilayotganini alohida ta’kidlamok kerak.

JILG‘ADAN UMMON QADAR

Atoqli shoirimiz Erkin Vohidov “Men jilg‘aman, Daryo bo‘lib to‘lgim keladi”, degan qanotli satrlarini 17 yoshida bitgan. Oradan yetti yil o‘tib, ya‘ni 24 yoshida shoir yozadiki:

Yo‘q, halovat istamayman,
Orom bilmas yosh jonim.
To‘lqin urgan ummoncha bor
Yurakdagi tug‘yonim.

E’tibor qilyapsizmi, jilg‘a daryo bo‘lib to‘lgach, endi ummon kabi toshmoqda – ijodiy kamolot yo‘li shu bo‘lsa, ehtimol.

Xo‘sh, bugungi kun yosh ijodkorlari yuragida qanday tug‘yonlar mavj urmoqda? Jilg‘alar ummonga aylanyaptimi?

Madina Norchayeva xuddi shu savollarga javob berganday, “To‘lqinlarning qanotsifat, Uch, dengizim”, deb yozadi. Dengizning uchishi – yaxshi topilma. To‘lqinlari qanotday silkinib uchmoqqa shaylanayotgan dengizning manzili – yurakdir. Bu yurak har bir qalbgacha kabi kirib borishni istaydi, a‘moli shuki, toki: “O‘sha qalbgacha sendan keyin ham Sendek kirib bormasin hech kim”. Shu bois, qushdek parvoz qilmoqqa imkon beradigan qanotli so‘zlarni qidiradi:

Men qushdek donladim olam yig‘isin
Va sukutga ko‘mdim chug‘urlarimni.

Bir kuni yo‘qoldim, singan cholg‘uday
O‘zimdan o‘zimni o‘g‘irladimmi?!

Nega uyg‘onmading, ichimdagi so‘z?
Axir, qalbdagi so‘z uyg‘onmasa, boshqalarni qanday uyg‘otish mumkin, “Kimni kuydirasan axir, kuymasang?” Kuydirguvchi, uyg‘otguvchi bu so‘z – otalar so‘zi, bobolar so‘zi emasmi?

Boychechak – zaminning ilk so‘zi,
Zamharir bir safar qasdida.
Tilga kir,
Bobolar ne tilda so‘zlashur,
Ne suhbat tuproqning ostida?

Yosh ijodkorlarimiz orasida o‘zining samimiy ovozi alohida ajralib turadigan iste’dodli shoir **Iroda Umarov**aning mana bu she‘rini o‘qiganda, inson chindan-da qanot bilan tug‘ilganiga – parvozga qodirligiga ishonasiz:

Ey musavvir, lof uchun rahmat,
Sotmadingiz faryodlarimni.
Faqat... faqat chizing bir bora
Rostdan ham bor qanotlarimni...

“Yurtdan turnalar uchdi, yuragimdan sen uchding, Turnalar qaytib kelar, sen... hech ketmagandaysan”, deb yozadi yana bir she‘rida u. Qanot-ku, bor gap ekan, inson qanoti bilan tug‘ilishi mumkin ekan, qanotsizlik qanday bo‘ladi?


Qo‘lim ko‘ksimga bosdim, ajabo,
bo‘m-bo‘sh ko‘rdim,
Qarshimda turibsan-ku,
nega qaytmagandaysan?

Mana, qanotsizlik. Va yana: **Cheksiz, tashvishlarday cheksiz koinot**
Va uning ichida kurrayi zamin
Va uning ichida bir odamobod
Va uning ichida bir ism mutloq
Va uning ichida... hech kimsizlik bor
Egasi yo‘q ism, tashlandi ism.

Qanot nafaqat insonda, hatto yaproqlarda ham bo‘lishi mumkin ekan. **Nurmuhammad Abduzoir**ning misralari bunga dalil:

Yaproqlar bu – qanotsiz qushlar
Yerga o‘gay,
ko‘kka o‘gaydir.
Qanotlari o‘sib chiqquncha
Hayotlari nogoh tugaydi.

Taniqli shoir Odil Ikrom yosh ijodkorning she‘rlari haqida shunday deydi: “Nurmuhammad – aql



va yurak, fikr va tuyg‘u, shaxsiyat va ijod orasidagi muvozanatni saqlashga harakat qilayotgan shoir. Uning nazmiy jug‘rofiyasi keng. Fikr-u tasavvurining ildizi zamin-u zamondan uzilmagan holda olis qadimiylilik mulkidagi ko‘ngilga yaqin quyma iboralar, hikmatlar sarchashmasidan oziqlangan”. Nurmuhammadning she‘rlarini o‘qigan she‘rxon bu fikrlarning rostligiga amin bo‘ladi. Mana, ayrim misollar:

Ko‘rib qo‘ysin eldan zap kulgan,
Qul etganlar nafsiga borlig‘in –
Vujudidan g‘ujuri ulkan
Pahlavonlar hali borligin...

Endi yurak – saroyim ham keng emasdir,
Bir xaroba, eshiklari juda pastdir,
Boshingni sal egmasang –
kirolmaysan.

Bir gina,
birgina cho‘g‘ qolmish – yurak,
Abadiy sen uchun kuynan vujudan.
Qop-qora dunyoda
toki gurkirab
Sening baxt mayog‘ing yonsin uchun ham –
Mayliga, ruhimni har on chaqsa-da,
O‘chirmam
bu cho‘g‘ni,
toki bu xatar
O‘t qo‘yib yuborsin o‘shal lahzada,
Hayotim xashakka aylansa agar.

Iroda Rahmonaliyeva she‘rlarida fikr ifodasi o‘zining ravon va ohangdorligi bilan ajralib turadi.



Ko‘zlaring ko‘zimga noma keltirdi,
Ko‘nglingdan izhor-u nola keltirdi,
Nechun tosh dilimga g‘alati titroq,
Ikki yanog‘imga lola keltirdi?

Ay ko‘zlari hiylagar,
ay ishq talxin tuymagan,
Men deb bir bor kuymagan
xotirjamim bo‘lding sen...

Ko‘nglingdan boqiyga hijrat qilarman,
Ketarman, bu bilan himmat qilarman...
Mendan ishq tilanma, qolmoq tilanma,
Sendan ketarman-u boz sen bilanman!

Iroda Rahmonaliyeva nafaqat so‘zning ohangini chuqur his qiladi, balki uning yaralish tarixini, lug‘aviy ma‘nolarini ham yaxshi biladi va to‘g‘ri tahlil-talqin eta oladi. Bu o‘rinda, uning til bo‘yicha qiziqarli tadqiqotlari “Jadid” gazetasi sahifalarida davomiy berib borilayotganini ta’kidlash kerak.

Yoshlar she‘riyatida **Jamoliddin Badalov**ning asarlari o‘zining o‘tkir ijtimoiy mazmuni va shiddati, da‘vatkorligi, odamni bir seskanib olishga, atrofga, o‘z turish-turmushiga uyg‘oq nigoh-la qayta razm solishga undashi bilan ajralib turadi.



Ey, ho‘kizdek baquvvat savil,
Yuragini yog‘ bosgan buqa!
Bu dunyoda urchitib nasl,
Yeb-ichgani keldingmi faqat?..

Zo‘ravon deb zorlanma, bil‘aks
Tangri senga in‘om beribdi!
Mijg‘ov emas, hajoiz emas,
Qattiqdanak o‘g‘lon beribdi!
Bir so‘z demay jim turishida
Tangritog‘ning viqorin ko‘rdim.
Kelbatida yashirin shiddat,
Uyg‘onguvchi vulqonni ko‘rdim.
Quloqsiz deb qulog‘in cho‘zma!
Kek saqlama, kechirib yubor!
Yo‘lbars bo‘lsa, yo‘lini to‘smal!
Burgut bo‘lsa, uchirib yubor!..

Tashqari chiqaman oyoq uchida,
Namchil havolarda omonat jimlik.
Kimning haddi sig‘ar shunday kechada,
Dunyoning tinchini buzmoqqa? Kimning?

QATRAHA HAYOT AKSI

“Mirodilning hikoyalarini e’tibor bilan qiziqib o‘qidim, – deb yozgan edi atoqli olim va munaqqid Ibrohim G‘afurov. – Men uning hikoyalaridan ijod maydoniga adabiyotni yaxshi tushunadigan, hayot va odamlarga teran boqadigan, izlash va ijod dunyosiga yangi qarashlar olib kirishni maqsad qilib qo‘ygan jiddiy ijodkor kirib kelayotganini uqdim va uning ijodga teran qarashlaridan xursand bo‘ldim”.

Ibrohim G‘afurovning **Mirodil Jo‘rayev** asarlariga so‘z yozgani bejiz emas. Bu asarlar ruhida ustoz adibning mansuralariga yaqinlik bor. “Yettinchi o‘lcham”, “Uchrashuv”, “Kelgindi”, “Tosh odam” singari o‘nlab asarlar nosir qalbining po‘rtanalaridan hikoya qiladi. Yuqorida insonning qanday qilib qanot chiqarishi mumkinligini chiroyli she‘rlar misolida ko‘rib o‘tgan edik. Endi, odamning toshga aylanib borishi aks etgan mana bu tasvirlarni ko‘ring:

“Uch kundirki, uydagilarning halovati yo‘q.
Toshga aylanayotgan oyoqlarim dastidan. U
xonadan bu xonaga qadam tashlaganimda, oyoqlarim polga do‘q urayotganday bo‘ladi.
Tovushidan bezovta bo‘la boshlashdi, qadamlarim ularga qaratilgan zardaga o‘xshaydi go‘yo...
Uxlab qoldim. Tongda uyg‘onib, shovqin tinganini payqadim, sababi, tosh kasalligim allaqachon qadoq qo‘llarim, bo‘yinlarimdan o‘tib, quloqlarimgacha yetib kelgandi. Endi men butunlay garang toshman!

Yaqinlarim bilan suhbatlashayotganimda bilib qolmasliklari uchun xuddi ularni eshitayotganday tutaman o‘zimni, lekin, baribir, avvalgiday dard-u hasratlarini his qilmayman. Ba‘zilari buni payqab qolib menga dardini aytmay qo‘yishdi.
Toshkent, sehrigar shahar, seni o‘zi toshga aylantirib, so‘ng o‘zi haykaltaroshlik qiladi. Shunchalik sayqal beradiki, hasrat toshlaringni berkitib yuboradi. Hech kim seni tosh yoki haykal deb o‘ylamaydi, sirtidan taniydi, xolos... Endi bir sen emas, butun shahar birlashib ulkan toshga aylanayotganini ko‘rasan-u, xotirjam tortib, yana ishingga ravona bo‘lasan”.


Yana bir yosh yozuvchimiz **Zikrilla Muhammad** ham kichik-kichik asarlari bilan tilga tushgan, lekin uning roman janriga qo‘l urgani haqida



ham eshitganimiz bor. Bu asarlarda jamiyatdagi qusurlar, odamzodning turfa qiyofasi, fazilatlar va illatlar qalamga olinadi. Mana, “Armon” nomli qatra hikoya:

“U rahbar bo‘ldi, tanishlari yaxshi ekanmi, unvondor ham bo‘ldi. Iste’dodlilarga uni rahbar qilib qo‘yishdi. U bundan zavqlanardi. Ichida kulib yurardi. Va qobiliyatlarini uncha xushlamasdi. Talanti borlar unga iltimos qilishardi. Shunday kezlarda biram yayrardiki, atayin ishni bitirishni paysalga solardi. “Iqtidorlaman deb g‘o‘dayishadi-yu, baribir, ishlari tushib, bosh egib kelishadi”. Shunday paytlarda, “Qalaysiz endi?” deya boqardi. Xullas oshig‘i olchi. Faqatgina uning yuragini bittagina armon o‘rtardi: iste’dodsizligini o‘zi ham bilardi”.


Shavkat Do‘stmuhammad esa yosh tomoshabinlar uchun qiziqarli pyesalar yozib, shu maydondagi bo‘shliqni to‘ldirib kelayotgan ijodkordir. Qo‘g‘irchoq teatri uchun yozgan “Gulsevarning gullari” nomli to‘rt ko‘rinishli ertak-pyesasi Surxondaryo viloyati qo‘g‘irchoq teatrida sahnalashtirilgani, albatta, yosh dramaturgning yutug‘idir. “Shalpangquloqlar” nomli musiqali tomoshasi, “Koinot himoyachisi” nomli multfilm ssenariysi ham yosh tomoshabinlarni befarq qoldirmaydi.



“Shalpangquloqlar” asarida aytiladiki: “Bilib qo‘yinglar, ota-onalar doimo bolalarini o‘ylaydi, ularga har doim yaxshi bo‘lsin, deydi. Lekin ularning yaxshi deb bilganlari faqat o‘zlari uchun yaxshi tuyulgan narsalar bo‘lsa-chi?” Yaxshi savol. “Koinot himoyachisi” bosh qahramoni Bek ismli bola: “Hoy, kim bor, yulduzlarni o‘g‘irlash-yapti! Uyg‘oninglar, osmonimizdan yulduzlarni o‘g‘irlashyapti! Nahotki, yulduzlar hech kimga kerak bo‘lmasa? Yo‘q, yulduzlar hammaga kerak! Ularni asrab qolishimiz zarur!” deya kurashga otlanadi. Qiziqarli voqealar asosiga qurilgan bu tomoshaviy asarlar bolalarni tarbiyalaydi, ularga yangi bilimlar beradi, tafakkurini o‘stiradi.

TUN HAQIDA YIGIRMATA SHE‘R

Internetni kuzata turib, yosh shoir **Humoyun Fattoh**ning bir tashabbusi e’tiborimni tortdi. Katta avlod vakillariga bugungi tezkor zamonda adabiyot, ayniqsa, she‘riyatga e’tibor susayganday, odamlar she‘r o‘qimay qo‘yganday tuyulayotgan bir paytda yosh shoirlar jamiyatda she‘r targ‘ibotini kuchaytirish uchun yangi-yangi g‘oyalarni o‘rtaga



tashlayotgani, hatto kitoblar taqdimoti, nazm va navo kechalari, adabiy uchrashuvlarni ham yangicha shaklda, hozirgi til bilan aytganda, kreativ formatda o‘tkazayotgani, bu borada ijtimoiy tarmoq imkoniyatlaridan unumli foydalanayotganlari tahsinga munosibdir. Bu tadbirlarda she‘rni ham – qo‘shiqni ham, tarixni ham – kelajakni ham, teatrn ham – shouni ham, muallif va tomoshabinlarning faol ishtirokini ham ko‘rish mumkin.

Xullas, boyagi tashabbus:

“Tun. Qaydadir nimadir charxlanayotir...”

Bir guruh iste’dodli shoirlardan shu satrni davom ettirib, ekspromt tarzida she‘r yozib ko‘rishlarini so‘ragandim. Kimdir bir soatda, kimdir yarim kunda yozdi, kimdir yozmadi... Ushbu she‘rlarni e’tiboringizga havola qilyapman.

Poeziyada ekspromt, bilasizlar, o‘z ixtiyori bilan yoki kimningdir taklifi bilan tayyorgariksiz, hozirjavoblik bilan qisqa fursatda she‘r yozish uslubi. Ekspromt she‘r ham boshqa she‘rlar kabi “gapiradi”: shoirning ayni paytdagi ruhiyati, kayfiyati, xayollari, dard-u iztiroblari haqida va iste’dodi, zehni, so‘z boyligi, tafakkuri, fantaziyasi haqida...

O‘qing! Fikr bildiring”.

Humoyun 20 nafar shoir do‘stidan she‘r olgan va uni internetga joylagan. Ushbu adabiy bahsga

qiziqib, har biri o‘ziga xos ovoz va uslub bilan yozilgan she‘rlarni o‘qib ko‘rmochi bo‘lganlar, ularni Humoyun Fattohning ijodiy kanalidan topishi mumkin.

Darvoqe, shoir ijodidan ham kichik bir parcha keltiraylik, toki, hazrat Alisher Navoiy ta‘biri bilan aytganda, “Tab‘ining ne miqdor quvvat va latofati bor erkanin she‘ridin bilsa bo‘lur, o‘qug‘on bilg‘ay”:


Kezganim yetmasmi shuncha darbadar,
Qaygayam borardim yodingdan chiqib?

Muhabbat
Ehtiyot qilaman o‘zimni, ammo
baribir kiradi sovuq
ichimga.
So‘ng yana shoshgancha uyga qaytaman,
Sovqotmasin deymen
ko‘nglimdagi qiz.

O‘Z OVOZINI IZLAYOTGAN AVLOD

O‘zbek adabiyoti, xususan, she‘riyati jahon miqyosida olib qaraganda ham, har jihatdan boy va betakrorligi bilan ajralib turadi. Mumtoz adabiyotimiz-ku – bebaho, zamonaviy adabiyotimizda ham biri-biriga o‘xshamagan, har biri o‘z adabiy maktabini yaratgan yetuk ijodkorlar bisyor. Xalqimizning ardoqli farzandi Abdulla Oripov yozganidek: “Shoir bo‘lish qiyin, Shoir bo‘lish og‘ir Shunday buyuklarning kahkashonida!”

Ba‘zan shunday tuyuladiki, hamma yaxshi she‘rlar yozilib, shoirnara lutflar istifoda etilib, dunyoning eng latif shaharlari go‘zallarning xoliga tuhfa qilib bo‘lingan go‘yo. **Nurmuhammad Aziz** ta‘biri bilan aytganda: “Sening husning xushro‘y, qaro xoling, oh!!! Menda na Buxoro, na Samarqand bor!” Lekin yoshlarning adabiyot bo‘stoniga taqdim etayotgan yangi-yangi ijod namunalarini o‘qib, hali yozilajak asarlar, ko‘hna dunyoning yangi talqinlari ko‘p ekaniga iqrar bo‘lasiz.



Shu ma‘noda, Nurmuhammad Azizning “Umid” nomli she‘ri o‘zi mansub avlodning ijodiy manifestida namoyon bo‘ladi. Muallifga “Sulaymon hassasin qulatkan qurtday”, “isyonning pushtidan bo‘lgan”, Ahriman lashkarin yurtdan quvgan “barzang alplarning mushtiday” bitta she‘r kerak. Mayli, u “mittimi va yo ulkan” bo‘lar, lekin “mazlumga malham, zolimga kaltak” bo‘lsin, xalqni asliga – chin xalq bo‘lmoqqa qaytarsin.

Xo‘sh, kim yozadi endi bu she‘rni? Axir, “Muntazir nigohlar ko‘paygani rost”.

Balki Kumush yozar, balki Mehriroz.
Bir nafas tin olgan to‘lqindek qalqib,
Najmiddin, Alibek, Shahriyor, Suhrob.
Muhammad, Humoyun, Feruzshoh, balki
Haqlidir Jontemir hammadan ko‘proq.
Balki men bilmagan bir gangchi yozar,
G‘irrom savdolardan bardoshi tugab.
Ko‘zlari top-toza, ko‘ksi top-toza,
Balki Nurmuhammad – adashim, ukam.
O‘sha she‘r bo‘lmasa, bo‘lmasa ishonch,
Nochor yuraklarga hayajon tashib.
Taxtga qaytaray deb, kiydiray deb toj.
She‘r uchun kurashib yurmasdi Rashid.
Yo Bashorat opam, yo Jamol akam,
Yo Muhammadali, yo Islom Ali.
Men nomin aytmagan shoir yozsa gar,
Uyatdan yer chizib qolarman hali.
Bilmayman kim yozar, bilmayman qachon,
Balki shu she‘r bilan banddirl xayoli,
Madina, Feruza va yo Nozima...

Agar mana shu g‘olib she‘r yoziladigan bo‘lsa, muallif uni “oqqo ko‘chirib, qiyqirib”, “Yo‘lma-yo‘l hayqirib bor ovoz ila, Ravshan Haqmuqrodni yoniga olib, Uyuma-uy tarqatib chiqishga rozi”.

Mana, shoir qanday she‘rni izlamogda:

Bolalarni uyg‘ot, shoirim,
Oftob bo‘lib so‘zing – yarog‘ing.
Ixsosim-u ishonchim tirik,
Yuraklarga qaytsin Torobiy.


Biz bugun qisman to‘xtalib o‘tgan yosh ijodkorlarimizning safi keng. Eng muhimi, yosh ijodkorlarimiz ham o‘zlarining minglab, millionlab tengdoshlari kabi Vatanimiz ravnaqi va jamiyatimizning ma‘naviy yuksalishi yo‘lida kamarbasta. Ulardagi iste’dod va so‘z aytmok mahorati kun kelib milliy adabiyotimizni yanada yuksaklarga ko‘tarmog‘iga ishonchimiz bor.

Ikrom ISKANDAR



OLAM OLIMI

NOBELNI uyg'otgan MATBUOT tarixni o'zgartirgan bir xato tarixi



Joriy yil boshidan buyon gazetamiz sahifalarida Nobel mukofoti sohiblari haqida maqola berib boryapmiz. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlari kuni munosabati bilan bu safar ushbu mukofot ta'sischi Alfred Nobel va mukofotning dunyoga kelishiga matbuotning sabab bo'lgani haqida yozmoqchimiz.

TARJIMAYI HOL

Alfred Nobel 1833-yil 21-oktyabrda Shvetsiyaning Stokgolm shahrida tug'ilgan. Bolalikdan kimyoga qiziqqan va shu yo'nalishda ta'lim olgan.

Yosh olim ingliz, fransuz, nemis, rus tillarini o'rgandi. Otasining biznesi inqirozga uchragach, 26 yoshida kichik laboratoriyada portlovchi moddalar ustida tajribalar boshladi. 31 yoshida endi oyoqqa turgan zavodi portlab ketdi. Oqibatda, ukasi halok bo'ldi. 34 yoshida dinamitni ixtiro qildi. Bu kashfiyot olimga olamshumul shuhrat va mislsiz boylik keltirdi. XIX asrning 70-80-yillarida butun Yevropadagi dinamit ishlab chiqaruvchi zavodlar tarmog'i unga tegishli edi. Olim dinamitni asosan tog'-kon sanoati, suv kanallari, tunnellar va temir yo'llar qurish uchun mo'ljallagan edi. Ammo odamzod uni ajal quroliga aylantirdi.

350 dan ortiq ixtirolarga patent olgan Alfred Nobel 1896-yil 10-dekabrda Italiyaning San-Remo shahrida vafot etgan.

MASHHUR XATO

1888-yilda olim yana bir jigari Lyudvigdan ayrildi. Fransuz matbuoti uni Alfred bilan adashtirib, "Olim savdogari o'ldi" sarlavhasi bilan ta'ziya e'lon qildi. Nobel buni ko'rib, o'zining tarixda qanday nom bilan qolishini anglab yetdi.

Uzoq mulohazadan so'ng tarixiy vasiyatnomaga imzo chekdi. Unga ko'ra butun boyligi hisobidan mukofot ta'sis etilib, maxsus jamg'arma ochiladi. Har yilgi daromad 5 qismga teng bo'linib, irqi, millati, jinsi va dinidan qat'i nazar, fizika, kimyo, fiziologiya yoki tibbiyot sohalaridagi kashfiyotlar, badiiy asarlar, xalqlar do'stligi va tinchlikni mustahkamlash yo'lida yutuqqa erishgan shaxslar yoki tashkilotlarga berilishi belgilandi.

1968-yilda Shvetsiya davlat banki o'zining 300 yilligi munosabati bilan iqtisod fanlari sohasidagi yutuqlar uchun beriladigan qo'shimcha Nobel mukofotini ta'sis etgan.

TAQDIRLASH

Laureatlar Alfred Nobel tasviri tushirilgan oltin medal, diplom va pul bilan taqdirlanadi.

Vasiyatga ko'ra, mukofotni berish vazifasi Stokgolmdagi Shvetsiya Qirollik fanlar akademiyasiga (fizika, kimyo, iqtisod fanlari bo'yicha), Karolinska instituti qoshidagi Nobel assambleyasiga (fiziologiya yoki tibbiyot bo'yicha) va Shvetsiya akademiyasiga (badiiy asarlar bo'yicha) topshirilgan. Tinchlikni mustahkamlash yo'lidagi faoliyat uchun esa mukofotni Norvegiya parlamenti tomonidan tayinlanadigan Norvegiya Nobel qo'mitasi beradi. Taqdirlash marosimi har yili Stokgolm va Oslo shaharlarida o'tkaziladi.

1901–2025-yillarda Nobel mukofoti 990 kishi va 28 tashkilotga berilgan.

XULOSA

Gazetadagi birgina xabar olamga mashhur olim va biznesmenning dunyoqarashini tubdan o'zgartirdi. Xalqaro miqyosdagi eng nufuzli mukofotning ta'sis etilishiga turtki bo'ldi.

Jasmina ISROIL tayyorladi.



Matbuot fikrlar tilmochi, millat va el-yurt rivoji yo'lida xizmatchi, odamlar ong-u shuurining quyoshi, har kimning vijdoniga tutilgan ko'zgu bo'lmog'i lozim.

"Sadoyi Turkiston" gazetasidan.



Boshlanishi 1-sahifada.

— To'g'risi, men uchun ishdan ko'ra qanday ishlashimni aytib berish qiyin. Mana, kaftingizga qarang, besh barmoq barobar emas: biri uzun, biri kalta, biri oldin, biri keyin. Ammo ular birlashib mushtni hosil qiladi. Agar barchasi teng bo'lganida, harakatlanish qanchalar qiyin bo'lar edi. Ayol kishi, umuman, inson hayotda shaxsiy chegaralari, oilasi, ishi, qiziqishlarini besh qo'lday aniq ko'rib, ularni to'g'ri ketma-ketlikka qo'yib olishi kerak. Odam hech qachon oila va ishni yoki ilmiy teng olib bora olmaydi. Baribir, qay biridir ustunlik qiladi. Hamma gap mutanosiblikni topa bilishda.

Men bir haqiqatga amin bo'lganman: ayolni doim turmush o'rtog'i qo'llashi kerak. Yo'qsa, oldinga qadam bosishi qiyin bo'ladi. Talaba qizlarimga ham eslatib turaman: eng avvalo, oila tinch bo'lsin, bu esa ayolning qo'lida. Ro'zg'orini tinchitgan ayol olima ham, tadbirkor ham bo'la oladi. Qizlar sep yig'ib emas, ilm yig'ib ulg'aysin. Bunda ota-onaning e'tibori va g'amxo'rligi muhim ahamiyat kasb etadi. Yigitlar ham uchrashuvga chiqqanda, "Ertaga bunday kiyinasan, ota-onamning xizmatini qilasan, menga itoatda bo'lasan va hokazo", deyishdan oldin qizning o'qiganiga, farzandga qanday tarbiya bera olishiga, er bilan yonmayon turib, ro'zg'orni obod qila olishiga e'tibor berishi kerak. Qiz bolada go'zal xulq va toza vijdon bo'lmasa, uni hech kim yetti qat devor ichida saqlab ham to'g'ri yo'lga yurgiza olmaydi. Chunki bugun oilaga tahdidlar tashqaridan emas, ichkaridan — telefon, internet orqali kelyapti.

Masalan, pedagogika universitetida kafedra mudiri lavozimida ko'p yillar ishladim. Darsliklar, o'quv qo'llanmalar yozdim. Unga kech kelgan paytlarim bo'ldi. Shunda oilam qo'llab turdi, turmush o'rtog'im, farzandlarim meni tushundi. Men ham o'zimni qat'iy qoidalarni ichida ushlaganman.

Ta'lim-tarbiya sohasida ishlash oson emas. Chunki bu masala har doim dolzarb bo'lgan. Ayniqsa, bugungi kunda yoshlarning bilimiga, darslarga qiziqishi ommaviy ravishda susayib borayotgani butun dunyoda og'riqli masalaga aylangan. Pedagogika oldiga jiddiy savollar qo'yilyapti. Ularga javob berish mas'uliyati olim sifatida bizning zimmamizda. Ana shu mas'uliyat bizni ish vaqti, belgilangan yuklama, qonuniy ta'til kabi tushunchalardan chiqib ishlashga undaydi. Bu kimningdir majburluvi yoki topshirig'i emas, vijdon buyrug'i bo'yicha bo'ladi.

— Ta'lim-tarbiyadagi muammolar haqida gapiribadiz. Quirg yillik tajribangizga tayanib aytasangiz, bugun tizimda qanday muhim vazifalar bor?

— Yangi O'zbekistonning eng katta yutug'i — ta'lim-tarbiya tizimiga davlat siyosati darajasida e'tibor qaratilmoqda. Misli ko'rilagan imtiyoz, rag'bat va imkoniyatlar berilmoqda. Endi tarbiya borasida mas'uliyatni fuqarolar, xususan, ziyolilar, olimlar, adiblar, san'atkorlar, nuroniylar zimmamizga olishimiz kerak.

Ba'zan "Tarbiya buzilib ketyapti", deymiz. Lekin ma'naviyat sohasida maqtanadigan jihatlrimiz ko'p. Birgina misol aytaman. 2018-yili Sankt-Peterburgda xalqaro konferensiyada qatnashdim. 38 ta davlatdan 400 dan ortiq olim keldi. Men ham ma'ruza qildim. Tanaffusda ta'lim-tarbiya masalalariga bag'ishlangan suhbat bo'ldi. Bir fransuz professori mendan: "O'zbeklarning tarbiyasiga butun dunyo havas qiladi. Sizlar farzandlaringizni oilada yashashga

qanday qilib o'rgatasizlar?" deb so'rab qoldi. Bunaqa savolni kutmagandim. Juda faxrlanib ketdim. Aytдимki: "Biz maxsus o'tirib, sen oilada yashashing kerak, deb hech kimni majburlamaymiz. Oila muhitidagi mehr-oqibat, g'amxo'rlik, ichki tartib-qoida avlodlarni o'zaro bog'lab turadi. O'zimiz ota-onamiz, jigarlarimizni yaxshi ko'rib, ularga e'tibor qaratamiz. Qush uyasida ko'rganini qiladi".

Shu payt olimligim tutib, taklif berdim: "Keling, so'rovnoma o'tkazaylik, qani, yoshlar nima uchun oila qurishni xohlamayapti? Sababi nima?" O'zim 11 ta savoldan iborat so'rovnoma tuzib, ertasi kuni shu olimlarga berdim. Yettita davlatda o'tkazdik. Oila qurishni rad etish ko'rsatkichi bo'yicha eng past natija O'zbekistonda chiqdi. Lekin o'tgan yetti yilda, kuzatyapman, bizning yoshlar orasida ham oila qurishni ortga surayotganlar ko'payib boryapti.

— Nega?

— Mana, masalan, ijtimoiy tarmoqlarda piarchi psixologlar, hovliqma motivatorlar ko'payib ketdi. Ularning ta'siriga tushib qolgan yigit-qizlar ham oz emas. Haligi chala "blogger"lar har xil talablarni qalashitirib tashlab, yoshlarni oila qurishdan cho'chitib qo'yyapti. Men aytamanki, baraka topkurlar, mustahkam oilaning bitta oddiy talabi bor — murosayu madora.

Xo'p, ijtimoiy tarmoqda qanaqadir fikrlar bildirilyapti ekan, biz nima qilyapmiz? Olimlar ham, mutaxassislar ham fikrini aytishi kerak. Media maydonni mutaxassislar, millatsevar, ma'rifatparvar shaxslar egallashi kerak. Mana shu milliy kontent bo'ladi.

"Tarbiya" darsliklarini yozishdan oldin so'rovnoma o'tkazdik. Bizni qattiq xafa qilgan bir holat bo'ldi. 85 foiz ota-ona farzand tarbiyasi bilan maktab shug'ullanishi kerak, deb hisoblar ekan. O'z navbatida, 86 foiz o'qituvchi tarbiya ota-onaning vazifasi ekanini aytgan. Demak, ana shu 85-86 foiz odamlarning farzandlari tarbiyasi o'rtada sansalor bo'lyapti. Mana, nega ta'limdagi muammolarga yechim topish uzoqqa cho'ziladi.

Ota-ona o'zini inkubator deb bilmasin. Farzandni dunyoga keltirib, yeb-ichishini ta'minlasam bo'ldi, qolganini maktab tarbiyalab olsin, degan o'y qanchalar mantiqsiz. Ertaga shu bolaning rohatini, azobini ham ota-ona ko'radi. Kelajak uchun, farzandlar istiqbol, pirovardida, mamlakat rivoji uchun oila va maktab hamkorligini kuchaytirish kerak.

— Ota-onalar va farzandlarning xususiy maktablarga qiziqishi ortishiga nima sabab bo'lyapti?

— Buning kesib aytadigan aniq bir javobi yo'q. Bugun davlat maktablariyati har tomonlama sharoitlar yaratilyapti. Lekin xususiy maktablarda erkinlik ko'proq. Yangi avlod erkinlikni yaxshi ko'radi. Ular har sohada mustaqil harakat qilishni, ozod o'ylashni, to'siqlarsiz yashashni istaydi. Bu yaxshi, faqat me'yor bo'lsa. Erkinlik istagi beboshlik, huquqbuzarlik, vaqtini isrof qilish va taltayishga olib kelmasin. Aks holda, farzandlarimizni yo'l boshidayoq o'zimizdan begona qilib qo'yamiz.

Xususiy maktablar va repetitorlarga talab ortishiga sabab — ularning o'quvchilari oliy ta'limga ko'proq kiriyapti. Lekin masalani boshqacharoq qo'yishimiz kerak. 7-8 yil oldin, xususiy universitetlar ochilgunga qadar nima bo'lardi? 0,3 ball yetmagani uchun abituriyent imtihondan yiqilardi. U bilimsiz degani emas. Test bilimni bir tomonlama aniqlaydi. Testni yechgan bola ham bilimni degani emas. U repetitorda yodlab keldi, unda hech qanaqa ijodkorlik yo'q, tanqidiy fikrlash yo'q, shaxsiy munosabat

yo'q. U faqatgina test yodlagan va auditoriyaga kirib ham shundoq o'tirib, shundoq chiqib ketadi. Lekin dunyo ta'limi bunday tizimda ketmayapti. Dunyo ta'limida bolalar o'zi loyihalar ishlayapti, mustaqil fikr yuritayapti.

Oliy ta'limdagi xususiy sektor faoliyatini ham mutlaq ijobiy yoki



Bugungi kunda O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida 1,5 milliondan ziyod talaba tahsil

olmoqda. Quvonarlisi, ularning yarmidan ko'pini qizlar tashkil etadi. Bu mamlakatimiz Prezidenti tashabbusi bilan ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasidir.

Qiz farzandining ilm olishiga ishongan minglab oilalar... O'zi qiziqqan kasbni tanlayotgan minglab qizlar... Ular o'qimoqda, izlanmoqda, bu qizlarning o'ziga bo'lgan ishonchi hamda shijoati kun sayin ortib bormoqda. Bilimli qiz nafaqat o'z hayotini, balki oilasini, atrofidagi muhitni va butun mamlakat kelajagini o'zgartirishga qodir.

Ta'lim insonga hayot yo'lini mustaqil tanlashda kuch va erkinlik baxsh etadi. Qizlarimizga orzulari sari dadil qadam tashlashlari uchun imkon beraylik.

Saida MIRZIYOYEVA,
O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
rahbari

mutlaq salbiy deb bo'lmaydi. Avvalo, davlat oliy o'quv dargohlariga mensimay qaramaylik. O'zim 35 yil davlat ta'lim muassasalarida ishladim. Bugun xususiy institut-universitetlarda ishlayotganlarning katta qismi davlat oliy ta'lim muassasalarida ishlagan pedagoglardir. Shu bilan birga, xususiy ta'limni ham yuzaki deb bilmaslik kerak. To'g'ri, xususiy oliy o'quv yurtlarida erkinlik ko'proq. Ammo bu erkinlikni talaba qo'shimcha ilm olish imkonini deb bilsagina yutadi.

— Ko'pchilik xususiy ta'limga qiziquvchilar soni oshdi, endi sifat tushib ketmaydimi, deb o'ylaydi.

— Men har doim bitta fikrdaman: son oshishi mumkin, lekin sifat hamisha birlamchi talab bo'lib qolishi zarur. Unutmaylik, oliy ta'lim ixtiyoriy, talaba oliy ta'lim muassasasi bilan shartnoma tuzadi. Hozir kredit-modul tizimi amal qiladi, biz to'rt yilda mutaxassis chiqarishga mas'ul emasmiz, agar u talabga javob bera olmasa, to'rt yil o'qiydimi, besh-olti yilmi, biz undan diplom qarz emasmiz. Biz talabaga hamma sharoitni yaratamiz. Lekin, agar talaba o'zlashtira olmasa, biz unga o'qigan kursining ma'lumotnomasini berib kuzatamiz. Tartib shunaqa.

Davlat oliy ta'limda xususiy sektor ulushini biznesni rivojlantirish uchun oshirmadi. Mutaxassislar soni va sifatini oshirish yo'lidagi islohot bu. Buni to'g'ri anglamasdan ish tutish ta'limga, yoshlarning vaqtiga, islohotlarga xiyonat bo'ladi.

— Keyingi paytlarda davlat ta'lim muassasalarida o'quvchilarning o'qituvchilarga nisbatan hurmat-sizligi, hatto zo'ravonlik holatlari haqida ko'p eshityapmiz. Biroq xususiy ta'lim muassasalarida bunday holatlar deyarli kuzatilmaydi.

— Subyektiv fikrimni aytaman. Maktab-institut farqlanishi mumkin, lekin ta'limning davlatniki yoki xususiy bo'lmaydi. Hammamizga ta'lim-tarbiya borasida talab bitta.

Birinchidan, o'qituvchi sinfda shunaqa ziddiyatli vaziyatlarni kelib chiqishining oldini olish kerak, yengillashtiradigan taktikalarni ko'proq qo'llashi lozim. Ikkinchidan, o'qituvchiga nisbatan o'quvchida simpatiya bo'lishi kerak. Bu qanday shakllanadi? O'qituvchining kiyinishi ham, yurish-turishi ham, muomala odobi ham o'rnak bo'lsin. Mutafakkir pedagoglarning hammasida shu fikr bor. Ustoz o'z ustida ishlashi shart.

Bolalarni yoshligidan tarbiyalash, bilimiga qattiqqo'ldir bo'lishimiz kerak, unga e'tiborli bo'lishimiz, zarur joyda mehr berishimiz lozim. Tarbiya oson jarayon emas. Tarbiyani oshirish uchun ko'proq ma'rifatlari insonlar kerak.

— Siz ayni paytda Buxoro inno-vatsiyalar universiteti rektorisiz. Ushbu dargohdagi muhim jihatlar haqida to'xtalib o'tsangiz.

— Buxoro innovatsiyalar universiteti — yosh universitet. Jamoamizga aytamanki, iqtidorli talabalarni atrofingizga yig'ing. Ularni rag'batlantirsa, boshqalar ham bizga intiladi.

Maqtanib aytam bo'ladi, Mo'y-noqdan 40 kilometrga ko'tariladigan sun'iy yo'ldosh uchiryapmiz. Atmosfera qatlamlarida o'rganish ishlarini olib boradi bu qurilma. Harakat talabalardan, xarajat universitetdan bo'ldi. Katta natija bu.

— Bugungi kunda Qorako'l ta'lim tajribasi nafaqat Buxoro viloyati, balki mamlakatning barcha hududlarida qiziqish uyg'otmoqda. Qorako'l tajribasining boshqa ta'lim modellari bilan farqi nimada?

— Gap avvalida aytib qo'yay: bugun Qorako'l ta'lim modeli nomini sotib pul ishlamoqchi bo'lganlar ham uchrab turibdi. Lekin vaqt ularni saralaydi. Chunki ta'limdagi yolg'on o'zini tez fosh qiladi.

Qorako'l tajribasining asosida tartib, shaffoflik, to'g'ri qo'yilgan talab va o'quvchi xohishi yotadi. Har bir bolada ayrica iste'dod bor. Kimdir musiqaga, kimdir matematikaga layoqatli. Majburlab Qorako'l maktabiga olib kelib, matematikani o'qitaman deb, bolani qiyinashning foydasi yo'q. Shuning uchun bu maktabga kelganlarning ta'lim olayotgan faniga iqtidorli bo'lganlari yaxshi talaba bo'ladi. Qorako'l ta'limining eng birinchi yutug'i shundaki, ular bolalarni saralab, o'zida xohishi bo'lganlarni o'qitadi. Bu — to'g'ri qaror.

Chex olimi Yan Amos Komenskiyning so'zlarini oddiy tilda tushuntiraman: ariqning bo'yidagi gul bilan xonaki gulni almashtirib qo'ysangiz, ikkalasi ham so'lib qoladi. Yoki tuyani tyulen o'sadigan sharoitda boqa olmasiz. Afsuski, biz bolalarning hammasini maktabga olib kiramiz-da, ulardan bir xil o'zlashtirishni talab qilamiz. Uni majburlaganimizdan keyin, albatta, har xil noxush holatlar kelib chiqadi. Bu narsadan voz kechaylik. Bolani iqtidoriga, iste'dodiga qarab o'qitish, rivojlantirish yo'lini ko'rishimiz kerak. Shunda bola o'qituvchiga quloq soladi. Chunki u o'zi xohlab maktabga kelyapti, o'zi istagan ish bilan shug'ullanyapti.

— Dilnoza opa, mazmunli suhbatingiz uchun rahmat! Fikr-mulohazalaringiz mushitariylarimizni ham befarq qoldirmasligiga, tafakkurga undashiga ishonamiz.

Zarnigor IBROHIMOVA
suhbatlashdi.



Ushbu QR-kodni skaner qilib suhbatni video shaklda ko'ring!



MILLAT FIDOYILARI


“Jinoyat tarkibi mavjud emas...”

Arxiv hujjatlari orasida 1961-yilning fevral oyida Marhamat Husanboyeva tomonidan yozilgan bir necha ariza e'tiborimizni tortdi. Ularda 1937-yil voqealaridan qolgan asoratlar, og'riqlar yaqqol sezilib turadi. Ayol turli idoralarga yo'llagan murojaatida eri Jumaboy Husanboyev hibsga olingan kuni xonadonidan olib chiqib ketilgan buyumlarning qaytarilishini so'raydi: yozuv stoli, oltita Vena stuli, kichik kalibri miltiq hamda O'zbekiston SSR Markaziy Ijroiya Komiteti a'zolari uchun bu anjomlar nechog'li qadrlı, umr yo'l-doshidan qolgan yodgorlik ekanini ta'kidlaydi.

Hujjatlar bilan birma-bir tanishar ekansiz, beixtiyor savol tug'iladi: Jumaboy Husanboyev kim? Nega oradan yigirma to'rt yil o'tib ham o'sha mudhish fojia izlari unutilmagan? Aslida, ayol so'ragan narsa ro'zg'orga yaramasdi ham. Lekin gap – xotirada, inson xotirası, birga o'sha yillarga hurmatda edi.

Jumaboy Husanboyev 1902-yili Qo'qon shahrida tug'ilgan. Taassufki, hujjatlarnı harchand qidirmaylik, hayotining dastlabki yillari mavhumligicha qoldi. Aytarli biror ma'lumot uchramadi. Qanday oilada unib-o'sgan, qayerda tahsil olgan, mehnat faoliyatini qachon, nimadan boshlagan – bu savollarga mavjud manbalarda javob yo'q. Ayni shuning o'zi ham qatag'on yillaridan “meros” qolgan katta bo'shliqlardan biridir.

Negaki, 1937–1938-yillarda odamlarning bosib o'tgan hayot yo'li, qilgan xizmati yoki el ichida topgan



Husanboyev Jumaboy

obro'si o'z ahamiyatini yo'qotgan, unga qarshi ayblov topish, buning uchun bo'htonlar yog'dirib, shu ayblovni tasdiqlaydigan hujjat tuzish muhim bo'lib qolgandi. Shu bois, ko'plab qatag'on qurbonlari qatori Jumaboy Husanboyevning ham bolaligi, kamolot yillari haqidagi ma'lumotlar vaqt to'zoni ostida qolib ketgan.

To'g'ri, hujjatlar qahramonimizning yoshligi haqida ko'p narsa demaydi, biroq keyingi sahifalarnı o'qigan kishi uning hayotidagi o'sha “yo'qotilgan yillar” beiz ketmaganini anglaydi. 1929-yilga kelib, uning nomi partiya hujjatlarida uchray boshlaydi. Oradan yana bir necha yil o'tib, Qo'qon shahar ijroiya komiteti raisi sifatida ko'rinadi. Bunday yo'l esa o'z-o'zidan bosib o'tilmaydi, albatta.

1937-yilning kuziga kelib, Jumaboy Husanboyevning faoliyati ham boshqa ko'plab rahbar kadrlar qatori jiddiy tekshiruv va muhokamalar markaziga tusha boshlaydi. Avval xizmat faoliyatiga doir ayrim e'tiroz va gumonlar sifatida boshlangan munosabatlar

qisqa vaqt ichida siyosiy tus oladi. Ana shunday muhitda u 1937-yil 22-oktyabrda hibsga olinadi. Tergov hujjatlarida endi Qo'qon shahar ijroiya komiteti raisi emas, 1935-yildan buyon millatchi aksilinqilobiy tashkilot a'zosi sifatida tasvirlanadi. Go'yo u Qo'qonda ko'zg'olonchi guruhlar tashkil etgan, qurol-yarog' va otlar tayyorlagan, tashkilotga yangi a'zolar jalb qilgan, hatto qishloq xo'jaligida zararkunandalik bilan shug'ullangan.

Jumaboy Husanboyev ayblovlar va o'ziga qarshi berilgan ko'rsatmalarnı rad etadi. Biroq bu paytda vaziyat shunday ediki, tergov hujjatlarida bir marta paydo bo'lgan ayblov keyinchalik haqiqatdan ham kuchliroq dalilga aylanib borardi. Ayniqsa, “millatchilik”, “qo'zg'olonchilik”, “aksilinqilobchilik” kabi tamg'alar qo'yilgan insonning o'zini himoya qilishi juda mushkul edi.

1938-yil 8-oktyabr kuni SSSR Oliy Sudi sayyor sessiyasi Jumaboy Husanboyevni O'zbekiston SSR Jinoyat kodeksining 58-, 63-, 64- va 67-moddalari bo'yicha aybdor deb topadi. Mol-mulki musodara qilinib, o'zi otuvga hukm etiladi. Hukm o'sha kuni Toshkent shahrida ijro qilinadi. Shu tariqa Qo'qon shahar ijroiya komitetining sobiq raisi hayoti bir necha sahifalik tergov hujjatları va qisqa sud qarori bilan yakunlanadi. Uning qayerga dafn etilgani haqida esa arxivlarda hech qanday ma'lumot yo'q.

Qatag'on hukmi Jumaboy Husanboyevning o'zi bilan tugamadi. Kimki o'sha yillarda qamoqqa olingan ko'lsa, uyida albatta tintuv o'tkazilib, shaxsan unga tegishli mol-mulk davlat foydasiga musodara etilar, ota-onasi va

barcha yaqin kishilari ishdan haydalar, oilasi esa ochiqdan ochiq ta'qib, xorlig-u zorlikka duchor bo'lardi. Ana shunday fojiali taqdir Marhamatxonning ham boshiga tushdi. U etagida to'rt nafar farzandi bilan yolg'iz qoldi. Keyinchalik arizalarida o'sha yillarnı eslab: “Men 5 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan to'rt nafar bola bilan qoldim va shu yillar davomida tahqir va ta'qiblarga chidab yashadim”, deb yozadi.

Marhamatxonning keyingi murojaatlari ana shu og'ir yillarnı yanada yaqqolroq tasavvur qilish imkonini beradi. Chunki ularda qatag'ondan keyingi hayotning rasmiy hisobotlarga kirmagan tomonlari saqlanib qolgan. Shu jihatdan, 1961-yil 21-fevralda KPSS Markaziy Komitetining Birinchi kotibi Nikita Xrushchev nomiga yo'llangan ariza alohida e'tiborga molik. Bu murojaat orqali biz Jumaboy Husanboyevning oila xotirasida qanday saqlanib qolgani, uning yaqinlari “nimalarnı ko'maganini” ko'ramiz. Biroq Jumaboy Husanboyev haqidagi savollar uning oilasi uchun ochiqlicha qolaveradi. Buni o'g'li Kim Husanboyevning davlat xavfsizlik idoralariga yo'llagan murojaatida o'qiymiz. Bu vaqtga kelib Jumaboy Husanboyevning begunohligi rasman tan olingan bo'lsa-da, ammo farzandlar uchun ota taqdiriga oid eng muhim savollar hali ham javobsiz qolmoqda edi. “Agar imkoni bo'lsa, qo'yilgan ayblov sabablari, vafot etgan sanasi va dafn etilgan joyi haqida ham xabar berishingizni iltimos qilaman. Bu ma'lumotlar uning farzandlari va nabiralari uchun, uning xotirasini munosib yod etish maqsadida juda muhim”, deydi Kim o'z arizasida.

Aslida, bu savollarga javob izlash ancha avval – Stalin vafotidan keyin boshlangandi. Jumaboy Husanboyev ishi ham ana shu tekshiruvlar qatorida arxiv javonlaridan olib chiqiladi. 1958-yil bahorida harbiy prokuratura tomonidan ish materiallari yana bir bor o'rganilib, 1938-yilgi ayblovlarning asosini tashkil etgan ko'rsatma va dalillar birma-bir tahlil qilinadi. Natijada tergov tayangan ko'plab iddaolar o'z tasdig'ini topmaydi. Jumaboy Husanboyevni sovetlarga qarshi tashkilot bilan bog'lagan shaxslardan ayrimlari oqlangan, boshqalariga nisbatan ishlar tugatilgan edi. Keyingi so'roqlarda esa yaxshi tanigan hamkasblari uni halol va mehnatsevar rahbar sifatida tavsiflaydilar.

Tekshiruv davomida yana bir muhim holat aniqlandi. Jumaboy HusanboyevshiniolibborganNKVD xodimlarining o'zlari keyinchalik tergov materiallarini soxtalashtirish bilan bog'liq jinoyatlar uchun javobgarlikka tortilgan. Bu holat ham ish materiallariga boshqacha nazar tashlashga asos bo'ldi.

Shu tariqa, bir vaqtlar og'ir jinoyat sifatida taqdim etilgan ayblovlar qayta tekshiruv jara-yonida birin-ketin o'z kuchini yo'qotdi. Harbiy prokuratura Jumaboy Husanboyevga nisbatan chiqarilgan hukmni bekor qilish va ishni jinoyat tarkibi mavjud emasligi sababli tugatish haqida xulosa berdi. Nihoyat, 1938-yilgi hukm bekor qilindi, “xalq dushmani” sifatida otib tashlangan insonning begunohligi rasman tan olindi.

Rustambek SHAMSUTDINOV,
tarix fanlari doktori,
professor

JAHON AYVONIDA

KUTILMAGAN MAQTOV
AQSH prezidenti Donald Tramp ukrainalik hamkasbi Vladimir Zelenskiyning urushga qarshi harakatlarini maqtadi. U bu haqda NATO bosh kotibi Mark Rytte ishtirokida Oq uyda bo'lib o'tgan matbuot anjumanida gapirdi.



Yaqinda Tramp Ukraina rahbarini bir necha bor tanqid qilgan, jumladan, uni mojaronı tinch yo'l bilan hal qilish borasidagi sa'y-harakatlarga to'sqinlik qilishda ayblagandi.

YONILG'I INQIROZI
Ukrainaning uzoq masofali kamikadze dronlar bilan Rossiya bo'ylab neft infratuzilmasiga bergan zarbalari mamlakatda yonilg'i taqchilligini keltirib chiqardi.



May oyi oxiridan buyon Rossiyaning kamida 62 ta hududida benzin va dizel savdosiga cheklovlar kiritildi. Buni “Важные истории” nashri mintaqaviy hokimiyatlar xabarları, mahalliy OAV materiallari va yonilg'i quyişh shoxobchalari ma'lumotlari asosida hisob-kitob qilgan.

Cheklovlar eng og'ir darajasi Qrimda joriy etilgan. Ukraina neftni qayta ishlash zavodlariga dron va raketa hujumlarini davom ettirish bilan

bir vaqtda, yarimorol uchun yonilg'i tashiladigan eng asosiy magistralni to'xtovsiz nishonga olyapti. Natijada bu AYOQSHlarda uzun navbatlar paydo bo'lishiga olib keldi.

URUSH TA'LIMDAN MAHRUM QILMOQDA

BMTning inqiroz davrida ta'lim berish bo'yicha jamg'armasi yangi hisobotini e'lon qildi. Unga ko'ra, dunyo bo'ylab 258 million maktab yoshidagi bola va o'smir inqirozlar sababli ta'lim ololmayapti.

Ulardan 93 million nafari maktabga



borish imkoniyatidan butunlay mahrum bo'lgan. Mojarolar va gumani-r inqirozlar tufayli maktabga bormayotgan bolalarning deyarli 80 foizi vaziyat eng og'ir bo'lgan 20 ta mamlakatda yashaydi. Hisobot mualliflarining ta'kidlashicha, muammo faqat maktabga bora olmaslikda emas. Inqiroz hududlaridagi bolalar oddiy o'qish, yozish va hisoblash ko'nikmalarini ham egallay olmayapti. Buning oqibatida ularning bilimida katta bo'shliq paydo bo'lmoqda.

Boshlang'ich sinflarda dasturnı o'zlashtira olmaslik o'smirlarning maktabni butunlay tashlab ketishiga sabab bo'lmoqda. eng yomon ko'rsatkichlar urush ketayotgan davlatlarda kuzatilyapti.

FRANSIYADA EBOLA ANIQLANDI

Fransiyada mazkur epidemiya boshlanganidan buyon ilk bor Ebola virusiga chalinish holati qayd etildi. Virus Kongo Demokratik Respublikasidan qaytgan



shifokorda aniqlandi. Bu haqda “Euronews” xabar berdi.

Shifokor gumanitar vazifa bilan KDRda bo'lib qaytgan. Fransiya Sog'liqni saqlash vazirligi Ebolaga qarshi barcha ehtiyot choraları ko'rilganini ma'lum qildi. Jumladan, bemor mamlakatga kelishi bilanoq darhol izolyatsiyaga olingan. Hozirda bemor bilan kimlar muloqotda bo'lgani aniqlanmoqda. Ushbu shaxslar uch haftalik uy karantiniga olinishi mumkin.

“POYEZDINGNI JILDIRGAN...”

O'zbekiston dunyodagi eng qimmat temir yo'l sayohatlaridan birining yo'nalishiga kiritildi. Amerikaning “Geographic Expeditions” kompaniyasi 2026-2027-yillarda bo'lib o'tadigan lpak yo'li bo'ylab elit turga chiptalar sotuvini boshladi.



Kompaniya ma'lumotlariga ko'ra, “Golden Eagle” hashamatli poyezdida sayohat qilish huquqi uchun xorijiy sayyohlar ikki kishilik chiptaga 53 200 dollar (taxminan 638 million so'm) to'lashi kerak.

Taxminan 3800 kilometr uzunlikdagi yo'nalish Buyuk lpak yo'lining tarixiy rekonstruksiyasi sifatida namoyon bo'ladi. Poyezd beshita davlatni kesib o'tadi: Xitoy, Qirg'iziston, O'zbekiston, Tojikiston va Qozog'iston.

YANGI KITOBLAR

“Kuting. Ko'rasiz”

Abdulhamid Muxtorovning nomi o'quvchilarimizga yaxshi tanish – izlanuvchan ijodkor “Jadid” gazetasining doimiy mualliflaridan sanaladi. Shu bois, uning “Tafakkur” nashriyotida chop etilgan “Teran so'z” nomli kitobi gazetonlarimiz uchun qiziqarli bo'ladi, deb o'ylaymiz.



Ba'zilar to'plamga bir qur ko'z tashlab, hali o'qimayoq: “E, hamma faylasuf bo'lib ketdi-da”, deya oshig'ich xulosaga kelishi mumkin. Fikrimizcha, muallif faylasuflik da'vosini qilayotgani yo'q, garchi falsafa sohasida tahsil ko'rgan bo'lsa ham. O'zi, ijodkor insonlar kuzatuvchan bo'lishini bilamiz, ular hayotga boshqacha ko'z bilan qaraydi, har bir voqea-hodisadan kutilmagan xulosalar chiqaradi. “Teran so'z” muallifi ham, albatta, bundan mustasno emas, kuzatuvlarini ixcham tarzda taqdim etishga harakat qiladi. Bunday fikrlarnı shoirlar odatda to'rtlik qilib yozadilar.

Kitobda “sochqilar” degan nom berilgan fikrlar shunchaki sochilib yotgan narsalar emas, aksincha, teggan joyini kuydiradigan uchqunga o'xshaydi. Mana, bu fikrlarga e'tibor bering: “Erkingni pulga sotgan bo'lsang, bilib qo'y: pulingdan erkingdan ko'ra tezroq ayrilasani”, “O'z fikri yo'q kishi kamikadze dronidan farq qilmaydi”, “Munosib kishiga qilingan ta'zim axloqsizning yuziga tortilgan tarsakidek olqishga sazovor”, “Ko'ra-ko'rona ergashsang, hatto xosiyatli odamning ham kasofati uradi”, “Ahmoq bosar-tusarini bilmay qolishi uchun katta mansabga minishi shart emas, yangi ishton olinishi kifoya”, “Kimnidir urib yiqitgan kishini kuchli deb xulosa qilishga shoshilma. Kuchli bo'lganda, o'z g'azabiga mag'lub bo'lmasdi”, “Eshik devorga suyab qo'yilishi yoki o'rnatilishi mumkin. Taqillatayotgan eshigingga e'tibor ber: o'rnatilganmi

AZIZ XOTIRA



QATAG'ON QURBONLARI

(Davomi. Boshlanishi o'tgan sonlarda).

Soli Qosimov – 1903-yili Shahrixonda tug'ilgan. Arxiv hujjatlariga ko'ra, u “Sho'royi Islom” tashkilotining faol a'zosi bo'lgan va shu sabab sudlangan. Soxta ayblovlar bilan qamoqqa olingan vaqtda xizmatchi bo'lgan. Noqonuniy yig'inlarda ishtirok etganlikda, hukumat va partiya tadbirlariga qarshi targ'ibot olib borganlikda ayblanib, O'zSSR Ichki ishlar xalq komissarligining 1938-yil 13-fevraldagi qo'g'ilishi qarori bilan otuvga hukm qilingan.

Bobojon Otajonov – 1880-yili Xiva shahrida tug'ilgan. 1917-yilgacha ishchi, dehqon, mardikor va tikuvchi bo'lib ishlagan. “Yosh xivaliklar” partiyasi a'zosi bo'lgan. 1917–1924-yillari bir qator mas'ul lavozimlarnı egallagan. “Qo'shchi” so'yzuzining raisi, 1920-yili Xorazm Xalq Sovet Respublikasi xalq komissarlar sovetining raisi lavozimida faoliyat ko'rsatgan. Xorazmdagi ijtimoiy va siyosiy o'zgarishlar uning faoliyati bilan bog'liq. 1924-yildan Xorazm Xalq Sovet Respublikasining Moskvadagi muxtor vakili, 1925-yil 7-martdan O'zbekiston SSR Yer ishları xalq komissari kollegiya a'zosi bo'lib xizmat qilgan.

SSSR Oliy sudi sayyor sessiyasining 1938-yil 5-oktyabrda, Toshkentda bo'lib o'tgan yig'ilishi qarori bilan otuvga hukm etilgan. Hukm o'sha kuni ijro qilingan.

Yahyo Xo'jayev – 1905-yili Buxoro shahrida tug'ilgan. U Fayzulla Xo'jayev va Ota Xo'jayevning jiyani bo'lib, ularning bevosita tarbiyasini olgan, yoshligidan milliy ravnaq g'oyasi ta'sirida shakllangan. 1924-yili “Milliy istiqlol” tashkiloti Markaziy qo'mitasining a'zosi Ibod Xo'jayev targ'iboti orqali a'zolikka qabul qilinadi. U amakilarining ko'magi bilan 1927-yili o'qish uchun Moskvaga yuboriladi.

Fayzulla Xo'jayev hibsga olinishi munosabati bilan uning hammaslaktari, jumladan Yahyo Xo'jayev ham 1937-yilning 7-avgustida hibsga olinadi. O'shanda u “O'zbeksavdo” idorasiga qarashli 26-do'kon mudiri vazifasida ishlardi.

Yahyo Xo'jayev 1937-yil avgustda Rahmon Alimovning uyida mag'lubiatchilik ruhida targ'ibot olib borganlikda ayblangan. 1937-yil 17-noyabrda 10 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm qilingan. Mahkum jazoni Yaroslavlsk oblasti, Uglich shahridagi Volga lagerida o'tagan. 1940-yil 28-yanvarda unga nisbatan jinoyat ishi qayta ko'rib chiqiladi va hukm o'z kuchida qoldiriladi. Oradan ancha vaqt o'tib, ya'ni 1957-yil 18-martda Buxoro oblasti sudi Yahyo Xo'jayevni reabilitatsiya qilgan.

Nabi Rasulzoda – Andijon shahrida tug'ilgan. “Milliy ittihad” tashkilotining Andijondagi bo'limi a'zolaridan biri bo'lgan. Uning 1930-yil 2-iyundagi tergovda aytgan gaplari hamda “Milliy ittihad” tashkiloti a'zosi Akbar O'razaliyevning 1935-yil 14-sentyabrdagi tergovda bergan ko'rsatmalaridan ayon bo'ladi, Nabi Rasulzoda milliy ozodlik harakatidagi faoliyati uchun otilgan.

Qudratulla Mag'zumov – 1896-yili Toshkent shahrida tug'ilgan. 1930-yil 14-aprelda “Milliy istiqlol” tashkilotining a'zosi sifatida Said Akrom Said Azimboyev, Qudratulla Mag'zumov, Parpixo'ja Erkaxo'jayev, Said Abdulla Said Azimboyev, Lutfulla qori Abdullayev, Yoqubxo'ja Bahriiddin Xo'jayev, No'mon Musayev qayd etilgan. Ana shu safda bo'lganligi uchun SSSR Ichki ishlar xalq komissarligi maxsus kengashining 1940-yil 19-avgustdagi bayonnomasida sovetlarga qarshi faoliyati uchun 5 yil mehnat-tuzatuv lageriga hukm etilgan. Jazo muddati 1938-yil 23-iyuldan hisoblangan.

Baxtiyor ALIMOV,
Jasurbek IMINOV,
Azizbek MAHKAMOV,
AnDU tuzilmasidagi
Qatag'on qurbonlari xotirasi muzeyi
ilmiy xodimlari

(Davomi kelgusi sonda).

I.BO'RIBOYEV



KUZATUV



QODIRIY AYERGA ARAYAPTI?

Baxtli tasodifmi yo oqilona yechimmi, har holda poytaxtning Zarqaynar ko'chasiga o'rnatilgan Abdulla Qodiriy haykali Islom sivilizatsiyasi markazi tomonga yuzlangani e'tiborimni tortdi. Aynan yodgorlik poyidan boshlangan Qorasaroy turizm ko'chasi sizni to'ppa-to'g'ri Markazning Ulug'bek darvozasi qarshisiga olib chiqadi.

Shu yerda Otabek va Ulug'bek ismlarining ma'no va ohang uyqashligi xayolimga "yilit" etdi. Bu xayol "O'tkan kunlar" romani va Yusufbek hojining o'g'liga chuqur iztirob bilan aytgan so'zlarini yodga soldi: *"Temur Ko'ragon kabi dohiylarning, Mirzo Bobur kabi fohirlarning, Forobiy, Ulug'bek va Ali Sino kabi olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilganlari bir o'l-kani halokat chuquriga qarab sudrag'uchi, albatta, Tangrining qahrig'a sazovordir, o'g'lim!"*

Bir jumla bilan donishmand adibimiz mustabid tuzum bosimiga qaramay, xalqqa Birinchi Sharq Renessansi va Ikkinchi Uyg'o-nish – Temuriylar Renessansi namoyandalarini eslatib o'tadi. Eslatish ham quruq sanoq emas, ayni shaxslarga mos sifatlar orqali beriladi. Agar o'sha paytda Lenin dohiy darajasiga ko'tarilib, undan a'lo odam yo'qligiga sovet xalqini ishonitirish ishlari faol olib borilganini inobatga olsak, Amir Temurning dohiy deb sifatlanishi – bu millat tarixda daholarga boy bo'lganini pisanda qiladi. Va qizig'i, sanalgan ajdodlarimiz hayoti, faoliyati va ijodi ayni Islom sivilizatsiyasi markazida

atroflicha, bo'limlarga bo'lib o'rganiladi.

Iqtibosning ikkinchi qismi achiqlik qarg'ish kabi yangraydi: *"...olimlarning o'sib-ungan va nash'u namo qilganlari bir o'l-kani halokat chuquriga qarab sudrag'uchi, albatta, Tangrining qahrig'a sazovordir, o'g'lim!"* Har bir narsaning o'zida ziddi ham mujassam bo'ladi. U holda Yusufbek hojining so'zida bundoq talqin ham yotadi: "bu o'lka va xalqqa najot beruvchi, albatta, Tangrining marhamatiga sazovordir". Avloniy "halokat" ziddida "najot"ni qo'llaydi. Imom Buxoriy ta'kidicha, dunyoda ilmdan boshqa najot yo'q, bo'lmagay ham. Bugun o'sha ilm-ma'rifat zamoni emasmi?

Yoshi kattalar bevosita, yoshlar bilvosita guvoh: sovetlar paytida sobiq ittifoq bo'ylab "dohiy"ning qo'lini oldinga cho'zib turgan haykali yomg'irdan keyingi qo'ziqorinday har go'shada qaqqayib turgan. Mafkura mashinasi talqiniga ko'ra, bu qo'llar kommunizmga yo'g'rilgan kelajakni ko'rsatib turgan. Yuz millionlab odamlar qariyb yetmish yil shu ko'rsatilgan tomonga qarab yurgan. Xo'sh, keyin-chi? Javobni O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azim satrlaridan topamiz:

"– Haykal, – dedim, – sen ko'rsatgan tomonga borib keldim. Hech narsa yo'q. Qo'lingni tushiraver endi. Qo'lini tushirishdan uyalib, jim turaverdi haykal..."

U "dohiy"lar ham, u davlat ham bizga begona edi. Allohga shukur,

Otabek BAKIROV

TILBILIM

“ALYOR” so‘zi haqida

“O‘zbek tilining izohli lug‘ati”da bu so‘zga shunday izoh berilgan: “ALYOR tarixi. O‘tmishda ziyofat va shu kabilarda qadah tutib aytiladigan so‘z yoki qo‘shiq. O‘zi kosagul bo‘lib, alyor aytib, alyor aytib, kosa berayotibdi (“Xushkeldi” dostonidan”).

Men Ergash Jumanbulbul aytgan “Kuntug‘mish” dostonini o‘qiyotib, alyor so‘zining boshqacha shakliga duch keldim:

*Sarg‘aymasin rang-u ro‘yim,
Ulug‘imsan, duogo‘yim,*



*Avval boshlang, ulkan biyim,
Biyim, allayor, allayor.*

Demak, alyor so‘zi “Alloh yor” so‘zining qisqargan shakli bo‘lishi kerak.

Yuqorida keltirilgan to‘rt

satr ham kosagulning so‘zidan olingan. “Kuntug‘mish”dagi bu alyor badiiy jihatdan nihoyatda pishiq chiqqan. Ohangi ham, ma’nosi ham yaxshi. Muhimi bu aytuvda alyor so‘zining tub ildizi ochiqlan.

*Kosa berdim qo‘lim tolib,
Har kosaga bo‘za solib,
Nozik bellarim buralib,
Tez ichgin qo‘limdan olib,
Hushyor, allayor, allayor.*

Elimiz orasida Allayor degan ismlar ham bor.

Eshqobil SHUKUR

QURULTOY

Keyingi yillarda mamlakatimizda ta'lim tizimini isloh qilish, iqtidorli o'quvchilarni qo'llab-quvvatlash va zamonaviy ta'lim muhitini yaratish yo'lida katta ishlar amalga oshirildi. Jumladan, 2019-yildan boshlab O'zbekistonning har bir hududida tashkil etilgan Prezident maktablari bu ezu yo'ldagi eng muhim va samarali tashabbus bo'lib, asosiy e'tibor Uchinchi Renessans avlodlarini kamol toptirishga qaratildi. 30-iyun – Yoshlar kuni oldidan Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktabda “Yangi zamon bitiruvchi yoshlari” qurultoyi chaqirildi.



Yangi zamon YOSHLARI

Ilm, izlanish va ulkan maqsadlarga yo'g'rilgan yana bir o'quv yili yakuniga yetar ekan, katta hayot ostonasiga qat'iy ishonch bilan qadam qo'yayotgan bitiruvchilar uchun ham tantanali xayrlashuv tadbiri tashkil etildi. Ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi tomonidan uyushtirilgan qurultoyda O'zbekiston Respublikasi maktab va maktabgacha ta'lim vaziri E'zoza Karimova, Respublika ma'naviyat va ma'rifat markazi direktori Otabek Hasanov, Kembriji universiteti “Rress and assessment” tashkilotining Yevropa va Markaziy Osiyo bo'yicha ta'lim islohotlari bo'limi rahbari Stiven King, Prezident maktablarining ijrochi direktorlari va 373 nafar bitiruvchi, shuningdek, Xitoyning “Yinghua Academy” ta'lim muassasasidan kelgan 18 nafar vakil ishtirok etdi.

“Iqtidorlar – taraqqiyot poydevori” shiori ostida o'tgan ochilish marosimida ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari agentligi direktori o'rinbosari Hasan Shakirov so'z olib, bu shunchaki tadbir emas, balki Yangi O'zbekistonning texnologiya, iqtisod, fan va madaniyatini xalqaro maydonga olib chiquvchi yoshlar bayrami ekanini alohida ta'kidladi.

– Bu qurultoy Prezident maktablarini tugatayotgan yoshlarni bir joyga jamlaydigan muhim platforma hisoblanadi, – deydi Toshkent shahridagi Prezident maktabi ijrochi direktori Xumroy Ashurova. – Ushbu tadbir dasturi doirasida innovatsion ta'lim loyihalari, sun'iy intellekt, robototexnika, yashil texnologiyalar, kiberxavfsizlik,



global dunyoda milliy qadriyatlar kabi yo'nalishlarda seminar-treninglar ham o'tkaziladi. Shuningdek, bitiruvchilar butun dunyoda yechimini qaratayotgan global muammolarga qarshi eng aktual loyihalarni taqdim qiladi hamda

shu asosda investorlar bilan xalqaro va mahalliy hamkorlik kelishuvlariga erishiladi.

Ushbu o'quv yilida tizimda qo'lga kiritilgan yutuqlarni alohida e'tirof etish joiz. Jumladan, Prezident maktablarining 327 nafar bitiruvchisidan 171 nafari muddatidan oldin xorijiy universitetlarga grant asosida o'qishga qabul qilindi. Ixtisoslashtirilgan maktablarining 8 ming 640 nafar bitiruvchisidan 1 ming 564 nafari ham muddatidan oldin nufuzli xorijiy va mahalliy universitetlar talabaligini qo'lga kiritgan. Ularning 326 nafari ma'lum miqdordagi xalqaro grant sohibi bo'lsa, Prezident maktablarining 42 nafar va ixtisoslashtirilgan maktablarning 57 nafar o'quvchisi yuz foizlik xalqaro ta'lim grantiga ega bo'ldi. Umumiy hisobda agentlik muassasalarining 99 nafar o'quvchisiga dunyo miqyosida 12,5 million dollarlik grant berildi. Ularning 89 nafari rivojlangan davlatlarning “TOP-300” talikka kirgan universitetlari talabalari safidan o'rin oldi. Xususan, Muhammad al-Xorazmiy nomidagi ixtisoslashtirilgan maktab o'quvchisi Asilbek Sunnatov va Elbek Zohidjonov dunyo reytingida birinchi o'rinda turuvchi Massachusetts, Farg'onadan Dilafurxon Sobirova Garvard, Nurafshondan Muhsinjon Movutaliyev Gonkong, Nukusdan Alpamis Mahmudov Kornell, Qarshidan Shohruhmirzo Xudoyqulov Toronto universitetlarining to'liq grantlari asosida oliy ta'limni boshlashi quvonarlidir.

– Bu dargohni o'zgacha hissiyat bilan tugatmoqdaman, – deydi Toshkent shahridagi Prezident maktabi bitiruvchisi Pahlavon G'ulomov. – Chunki u yetti yillik ta'lim davrida qalbimning bir bo'lagiga aylandi va mening, do'stlarimning hayotini butunlay o'zgartirdi. Biz maqsadlarimizni aniq belgilashni shu yerda o'rgandik, yo'limizni shu yerda topdik. O'tgan yili Abu Dabi shahrida ustozim Sohixxon Azizov va jamoadoshim Asilbek Ashrapov bilan birgalikda “Yong'ir suvini filtrlash va uni saqlash” bo'yicha ilgari surgan loyihamiz uchun 150 ming dollarlik xalqaro grant yutib oldik. Butun dunyo davlatlaridan kelgan raqobatdoshlar orasida turib Vatanimiz sharafini himoya qilish juda hayajonli edi. G'oliblik e'lon qilinganida, ko'zimizdan yosh chiqib, qiyqirib

yuborganmiz. Buni so'z bilan ifoda etish qiyin. Ayniqsa, Prezidentimiz tomonidan uchun suyunchi sifatida har birimizning “BYD” avtomobili bilan taqdirlanishimiz yuragimizni cheksiz g'ururga to'ldirdi. Hozirda loyihamiz Qashqadaryo viloyatida tatbiq qilinmoqda. Biz uchun ana shunday chuqurlashtirilgan ta'lim



beruvchi maktablar tashkil qilgan Prezidentimizga, xalqaro standartlarga mos ravishda bilim bergan ustozlarimizga rahmat deymiz. Qurultoyda tengdoshlar bilan rejalimiz, orzularimiz haqida o'rtoqlashdik. Men kelajakda Yangi O'zbekiston universitetida o'qishni davom ettirib, yangi zamon yoshlari nimalarga qodir ekanini butun dunyoga ko'rsatmoqchiman.

Ha, Prezident maktablarining ikki kun davom etgan “So'nggi qo'ng'iroq” – xayrlashuv tadbiri katta hayotga qo'yilayotgan dadil qadamlar ramziga aylandi. Jarayonda o'quvchilar sho'balarga bo'linib, o'z loyihalarini muhokamaga qo'ydi, o'zaro fikr almashdi, olg'a surayotgan g'oyalarni himoya qildi. Xitoylik mehmonlar O'zbekiston ta'lim tizimi va yoshlar hayoti bilan tanishtirildi. Yangi Zelandiyaning “ANGEL” investor tashkiloti vakili Abel Braff, “SOLAREX” MCHJ rahbari Salamat Gulembetov, “BARAKAT” mikromoliya tashkiloti rahbari Lutfiya Safarova singari yoshlar loyihalarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash uchun taklif kiritgan investorlar hamda eng faol bitiruvchilar maxsus sertifikatlar bilan taqdirlandi.

Prezident maktablarining Yoshlar bayrami arafasida o'tgan an'anaviy qurultoyi esda qolarli lahzalarga boy bo'ldi.

Muhayyo RUSTAMOVA

